


376.
L-82.

ISHMATOVA OZODAXON SIROJOVNA

KORREKSION MASHG'UOTLARDA ESHITISHIDA NUQSONI
BOR BOLALARNING OG'ZAKI NUTQINI FONETIK RITMIKA
ORQALI RIVOJLANTIRISH



M O N O G R A F I Y A

346,
1-82

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

ISHMATOVA OZODAXON SIROJOVNA

KORREKSION MASHG'ULOTLARDA ESHITISHIDA NUQSONI BOR
BOLALARNING OG'ZAKI NUTQINI FONETIK RITMIKA ORQALI
RIVOJLANTIRISH

mavzusidagi

MONOGRAFIYA

- 5109/x -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ - 2024 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K 376.056.2

KBK 74.3

I - 82

Ishmatova O.S./Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish./
Monografiya. "Yangi chirchiq prints" –Chirchiq.: 2024. –96 bet.

Mas'ul muharir:

Qodirova Feruzaxon Usmonovna- pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar :

F.U. Qodirova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, v.b.professor

U.Y. Fayziyeva - Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Ushbu monografiyada 0-1 sinf eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilari og'zaki nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilingan hamda ularning og'zaki nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika metodikasining rolini eksperimental o'rganish metodikasi berilgan.

Mazkur monografiya pedagoglarni tayyorlochi oliy ta'lim muassasalarining Maxsus pedagogika (surdopedagogika) yo`nalishi bakalavr va magistr talabalariga hamda malaka oshirish institutlarida maxsus pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirishda, maxsus va inklyuziv ta'lim pedagoglariga hamda shu yo`nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga mo`ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy Metodik kengashining 26.12 . 2023-yildagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-939-22-8

© "Yangi chirchiq prints", 2024

© Ishmatova O.S., 2024

"Jamiyatimizning eng ehtiyojmand qatlamlaridan biri bo'lgan nogironlar bilan bog'liq faoliyatimizni tanqidiy qayta ko'rib chiqar ekanmiz, bu insonlar ham mamlakatimiz fuqarolari, bizning yurtdoshlarimiz ekanini, binobarin, hech qachon o'zlarini yolg'iz his etmasliklari, ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizda faol ishtirok etishlari uchun bundan buyon ham barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz...."

Sh. M. Mirziyoyev¹

Kirish

Yurtimizda 3-renesans davri boshlandi va bu davr juda katta ijobiy ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlarga boy davrning boshlanishi bo'ldi. Albatta, 3- renesans egalari bu o'sib kelayotgan yosh avlod demakdir. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan e'tibor va ishonch yuksak darajada ekani, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlarda namoyon bo'lmoqda. Birgina 2019 yildan buyon ishga tushirilgan "Prezident maktablari" ning barpo etilishi, yana aynan o'sha yilning 29-aprel sanasida qabul qilingan PF -5712 sonli O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi so'zimizning isboti bo'la oladi . Yangi davr ta'lim sohasidagi barcha yo`nalishlarning rivojiga turtki bo'lgani kabi, "Maxsus pedagogika" sohasida ham ulkan yutuqlar davri boshlandi.

Mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev 2021 yil 3- dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaatida shunday dedi: "Ezgulik, mehr-oqibat, insonparvarlik timsoli bo'lgan ushbu ayyomda mamlakatimizdagi bir millionga yaqin imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan fuqarolarimizga hurmat-ehтиrom va ezgu tilaklarimni bildiraman Darhaqiqat, mehr-muruvvat va bag'rikenglik xalqimizga xos fazilatdir. Bundan yuz yilliklar avval ham, hozirga qadar aholining yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan qatlamiga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish tariximizdan ma'lum. Bunday munosabat jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilar ekan, mamlakatimizda nogironligi bo'lgan insonlarga bo'lgan e'tiborimizni eng muhim qadriyatlardan biri sifatida qarashimiz va har sohada ularni qo'llab - quvvatlashimiz, huquqlarini himoya qilishimiz kerakligini anglagan holatda soha rivojiga hissa qo'shish niyyatida bel bog'ladik.

¹<https://daryo.uz/2021/12/03>.

Defektologiya sohasi tiflopedagogika , oligofrenopedagogika, logopediya va surdopedagogika sohaslarini o'z ichiga olgan kompleks soha bo'lib, uning obyekti, alohida e'tiborga muxtoj bo'lgan shaxslar ekan, ushbu soha vakillari bunday shaxslarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun xizmat qiladigan inson xususiyati bu nutq.

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.²

Bizning mavzu baxsimiz bo'lgan kar va zaif eshituvchi bola jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me'yorda rivojlangan, sog'lom tengqurlari qatorida o'z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta'minlash mumkinligi amalda o'z isbotini topmoqda. Shunday ekan, tadqiqotimiz dolzarbligi ma'lum deb hisoblaymiz.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning ma'lumotiga ko'ra dunyo aholisining 15% ini (aniqrog'i 1 milliarddan ortiq) turli toifadagi nogironligi bor insonlar tashkil etar ekan shulardan 5% dan ko'prog'ini (aniqrog'i 360 million kishini ulardan 328 millioni kattalar va 32 millionini bolalar) eshitishida nuqsoni bor insonlar tashkil etayotgan ekan.³ Bu esa , jahon miqosida, bunday insonlarga e'tibor tobora ortishini keltirib chiqardi. Eshitishida muammolari bo'lganlarning ta'lim-tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvi Surdopedagogika fanining mavzu baxsi bo'lib , bunday insonlarning huquqlari quyidagi qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan: BMT Bosh Assambleyasi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" (2-statya);⁴ Umumjahon karlar federatsiyasi. BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" . UNISEF- BMT ning bolalar fondi kabilardir.

MDH davlatlari olimlaridan. F.A.Rau, F.F. Rau, K. F. lar dinastiyasi Volkova, N. F. Slezina, E. I. Leongard, I.Bagrova, V.Belyukov, R.Boskis, L.Golovchits, S.Zikov, Ye.Kuzmicheva, L.Neyman, L.Noskova,

² <https://uz.m.wikipedia.org>

³ [<https://ria.ru>> Novosti 3.03.2020].

⁴ BMT Bosh Assambleyasi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" (2-statya) ;

T.Pelinskaya, N.Shmatkolar surdopedagogika sohasini rivojlanishiga hissa qo'shgan bo'lsalar, mamlakatimizda surdopedagogika sohasining rivojiga o'z hissasini qo'shgan olimlarimizdan F.Alimxo'jaeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, N.Dadaxo'jaeva U. Yu. Fayzieva, F.Qodirova, Mamarajabova, G. Abdullayevalardir.

Mamlakatimizda sohaga oid qonun xujjatlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; O'zbekiston respublikasida nogironlarni himoya qilish to'g'risidagi 162 sonli qarori; Ta'lim to'g'risidagi qonun; Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida O'RB-641 15.10.2020;6 01.12.2017 sanada qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Pf 5270 qarori shu jumladandir. Hamda Sh. Mirziyoyevning "yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari.⁵

Aynan surdopedagogika sohasida bo'lib o'tgan ijobiy burilish nafaqat eshitishida muammosi bor aholi qatlami va ularning oilasi, balki shu soha mutaxassislarini ham quvontirdi. 23.09.2020 yilda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi qonunga inklyuziv ta'lim masalasi ko'tarilgani aholining alohida ehtiyojli qatlamiga yangi shart-sharoitlar yaratilmoqda.⁶ Buning isboti sifatida eshitishida nuqsoni bor o'quvchilar uchun onlayn maktab loyihasi surdotarjima bilan efirga uzatilayotgani, "Zamin fondi" tomonidan yo'lga qo'yilgan "Eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun ta'limni rivojlantirish" loyihasi doirasida har yili 30 nafar bolaga koxlear implant qo'yish yo'lga qo'yilgani, 2018 yil 28- iyunda mamlakatimiz prezidenti Mirziyoyevning Kar-soqovlar madaniyat markaziga tashrif buyurib, Markazning faoliyatini o'rganib chiqib, uni yanada takomillashtirish, hamda "O'zbekistondagi har bir nison u uchun qadrlı" ekanligini bildirib, mamlakatimizda bu sohada kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirilishini ta'kidladi. So'zimizning isboti sifatida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti qoshida 2020 -2021 o'quv yillarida tashkil etilgan Maxsus pedagogika "Defektologiya" (Surdopedagogika) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarni tayyorlash bo'limining ishga tushganini misol qila olamiz. Ushbu ta'lim yo'nalishida qilinayotgan mazkur magistrlik

⁵ (20-mudda O'RB-637-sonli 23.09.2020)

⁶ O'RB-641 15.10.2020; 01.12.2017 sanada

⁷ Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. Toshkent-2022 "O'zbekiston" nashriyoti, 202-208 chi bet.

⁸ (20-mudda O'RB-637-sonli)

ishi mavzusining dolzarbligini ishimiz davomida isbotlashni maqsad qildik.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirish borasida dunyo miqyosida juda ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Jumladan BMT Bosh Assambleyasi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" ning 2-statyasi "Nogironlarning nutqi muloqot vositasi sifatida" mavzusiga bag'ishlanganligi. Xarvatiyada verbotonal usulning yaratilishi, Germaniyada "Sof og'zaki nutq" metodining ilgari surilishi.

Biz tomondan tanlangan mavzu nutq borasida ekan, rus olimlaridan A. Luriya, N. A. Vlasova V. A. Grinner, N. V. Miklyaeva, D. S. Ozeretskiy, O. A. Polozova, Y. N. Radionova, N. S. Samoylenko, Yu. A. Shmatko N. D. Florenskaya, F. Muxinalar nutqiy nuqsonlarni korektsiyalashda nutq va harakat uyg'unligining nechog'lik muhimligi haqidagi fikrlariga tayanamiz.... Aleksandr Romanovich Luriyaning "Основы нейропсихологии" sida miya tizimli- funktsional modelida nutq shakllanishi va harakatning o'zaro bog'liqligi haqidagi ilmiy asoslangan faktlarni ko'rish mumkin.⁹

Mahalliy olimlarimizdan Muminova L. R., F. U. Kodirova, V. A. Nazarova, Z. Mamarajabova, R. R. Rustamova, G. S. Abdullayevlar maktabgacha va maktab yoshidagi kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

U. Y. Fayziyevaning "Zaif eshituvchi bolalarni savodga o'rgatishning nazariy asoslari"; D. A. Nazarovaning "Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish"; Z. Mamarajabovaning "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bog'langan nutqini o'stirish yo'llari" F. U. Qodirovaning "Kar va zaif eshituvchi bolalar og'zaki nutqini shakllantirish"; R. Rustamovaning "Boshlang'ich sinflarda zaif eshituvchi o'quvchilar nutqining grammatik qurilishi" hamda G. S. Abdullayevaning¹⁰

Eshitishda nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda yaxshi samara beruvchi yana bir metodika bu "Fonetik ritmika" maxsus metodikasi hisoblanadi. Mazkur metodikadan foydalangan holda eshitishda nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini

⁹ (Основы нейропсихологии А. Р. Лурия 2003 год)

¹⁰ Г. С. Абдуллаева «Технология коррекционно-развивающей работы с глухими учащимися 1-2 классов по формированию и развитию слухового восприятия и произношения» Диссертация - г Чирчик - 2012

shakllantirish va rivojlantirishda o'sish dinamikasi kuzatildi. "Ushbu metodikani rus pedagog olimlari Pfafenrod va Vlasovalar yaratib ketgan bo'lib, shu jumladan G. A. Volkova, T. M. Grebenko va boshqalar ushbu metodikani ilgari surganlar. Hozirda Rossiya va bir qancha xorijiy davlatlar amaliy surdopedagogikasida eshitishda muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda samarali metodikalardan biri sifatida foydalanilayotgani aniqlandi."¹¹ (Андреева Наталия Алексеевна ГОУ РК № 4 учитель фонетической ритмики 14.11.2018). Молодой учёный 2018 yil iyun oyidagi 25-№ sonida "Фонетическая ритмика как средство коррекции произносительных навыков детей с нарушениями слуха во внеурочное время» deb nomlangan maqolada ushbu metodika haqiqattan ham har tomonlama samarali ekani olingan natijalarda ko'rsatilgan. Rossiya federatsiyasidan yana bir amaliyotchi surdopedagog, maxsus pedagogika mustaqil tadqiqotchisi (Опубликовано 26.02.2020) Стародубцева Наталия Васильевна «Формирование коммуникативной функции речи слабослышащих детей младшего школьного возраста посредством специального метода фонетической ритмики» mavzusidagi maqolasida fonetik ritmika maxsus metodikasini 2000 yildan buyon o'z faoliyatida eshitishda muammosi bo'lgan bolalar va o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda asosiy va eng samarali metod sifatida ishlatayotganini yozgan va ushbu metod nutqiy nafas, ovoz, ritm, intonnatsiyani hamda motorikani rivojlantirishda o'z samarasini berayotganini misollarda isbotlab bergan. Undan tashqari, Udmurtsk respublikasi amaliyotchi defektologi Yelena Fokina «Фонетическая ритмика как метод формирования и коррекции произносительной староны речи» deb ataluvchi proyektni yo'lga qo'ygan.¹²

Shunday ekan eshitishda muammosi bo'lgan bolalar va o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmika maxsus metodikasini tanlab olishni maqsadga muvofiq deb bildik. Ishimizda shuni isbotlashga harakat qilamiz.

¹¹ Korreksion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish texnologiyasi (0-1 sinflar misolida) O.S. Ishmatova magistrlik dissertatsiyasi. Chirchiq -2022. (64-67 betlar)

¹² (Опубликовано 26.02.2020) Стародубцева Наталия Васильевна

¹³ <https://www.maam.ru/detskijasad/proekt-foneticheskaja-ritmika-kak-metod-formirovaniya-i-korekci-roiznositelnoi-starony-rechi-doshkolnikov.html>

I-BOB. ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR OG'ZAKI NUTQI O'ZIGA XOSLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI. FONETIK RITMIKANING ILMIY ASOSLARI.

1.1 Jahonda ritmika va fonetik ritmika ta'limotining ilmiy asoslari

Ritm tushunchasini qadimiy tushuncha bo'lib, grek faylasufi Aflotun ritmni harakatdagi tartib deb izohladan.¹⁴

G. Franioning fikricha ritm harakatda eng tabiiy va mantiqiy ravishda aks ettirilishi mumkin bo'lgan musiqiy ekspressivlik elementlarini o'rganishga asoslanadi.

H. Pulatovanning fikricha bolaning barmoq harakatlari yetarli kuch va aniqlikka erishgandan so'ng nutq shakllana boshlaydi. O'z asarlarida Aleksandrova N. G., J.Dalkroz, Rumer M. A., Zbrueva N. P., Vetlugina N. A. va boshqa ko'plab mualliflar ritm bolaning umumiy rivojlanishiga, nutq buzilishlarini tuzatishga samarali ta'sir ko'rsatadi degan fikrlarni ilgari surganlar.

Shveysariyalik o'qituvchi va musiqachi Emil Jak-Dalkroz 19-asr oxirida birinchilardan bo'lib ritmik ta'lim tizimini ishlab chiqdi. Uning fikricha, musiqiy-ritmik tarbiya insonning irodasi, fe'l-atvori va aql-zakovatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda normal rivojlanayotgan va rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashda J. Dalkroz usulidan foydalaniladi. Uning usuli bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan musiqa va harakatning o'zaro bog'ligiga asoslanadi. Ushbu aloqa bolalarda musiqiy – ritmik ko'nikmalarni, musiqiy xotirani, e'tiborni va harakat ko'nikmalarini shakllanishiga sharoit yaratadi, bunda musiqiy ekspressivlik mavjud bo'lib, ritmni o'yinlarda, raqslarda, mashqlar va turli harakatlarda yetkazib berilishni ta'minlaydi.¹⁵

E. Jak-Dal'roze «Vaqt va makon abadiy ritm qonunlariga bo'ysunadigan borliq bilan to'ldiriladi» deb yozgan.¹⁶

Ritm inson organizmiga psixofiziologik ta'sir etuvchi jarayon bo'lib, E. Jak-Dal'roze musiqa ritmi insonning harakat qobiliyatlari,

14 Корсини Р., Ауэрбах А. Психологическая энциклопедия. 2-е изд. — СПб.: Питер, 2006. — 1876 с.

15 Уварова, Г. А. (2016). Развитие музыкальных способностей через движение в профессиональном музыкальном образовании. In Традиции и перспективы искусства как феномена культуры (pp. 518-529).

16 Б а с о в М. Я. Движения под музыку. — В кн.: Избранные психологические произведения. — М., 1975, с. 147—149.

mushaklarning reaktivligi bilan chambarchas bog'liqligini tushungan va musiqiy ritmni inson tanasining turli xil harakatlariga singdirilishga erishgan.

Ritmik ta'lim usulini yaratish va loyihalash bo'yicha ishlar 1900-1912 yillarga to'g'ri keladi. E. Jak-Dal'roze mashqlar tizimi badiiy gimnastika, keyinchalik - ritmika deb nomlandi.

Ritmik mashqlar asta-sekin murakkablashib, insonning butun psixofiziologik holariga, harakatlarining aniqligiga, xotira, diqqat kabi jarayonlarini kuchayishiga, ijodiy tasavvurini rivojlanishiga ta'siri aniqlandi. Musiqiy ritmika bolalarning erta musiqiy hamda estetik tarbiyasi uchun zarur deb hisoblanadi. Bastakor ritmning bolalar uchun muhimligini ta'kidlaydi, chunki harakat bola tanasining biologik ehtiyojidir deb hisoblaydi.¹⁷

Inson bolasi embrional davridanoq birinchi navbatdagi aktiv faoliyati bu harakat ekan, shu orqali uning boshqa barcha jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, harakatlar majmui ritm ekan, harakatlar orqali insonni turli xil kasalliklardan davolash amaliyoti ham mavjud bo'lib, ushbu usul uzoq tarixdan ma'lum.

Qadimgi Hindiston, Xitoy va Misrda suyak-bo'g'im kasalliklarini tananing turli ritmik harakatlari orqali davolash, uqalash va gidroterapiya muolajalari, gimnastika kabilar bilan davolash muolajalari qo'llanilgan.

Qadimgi Hindistonda nafas yo'llari kasalliklarida maxsus jismoniy va nafas mashqlarining uyg'unlashuvi orqali davolash amaliyoti olib borilgan. Bu "Yoga" mashqlarida yaqqol ko'rinadi.

Profilaktik tibbiyot qadimgi Xitoyda paydo bo'lgan va u millatning milliy kurash usuli "Kung-fu" sida ham aks etadi.

Qadimgi Yunoniston olimlari Gippokrat, Asklepiad, Gerodikos, Galen, Sels va boshqalar kasalliklarning oldini olish hamda davolashda parhez va dori – darmonlardan tashqari, tana mashqlari, uqalash muolajalarini keng qo'llashni tavsiya etganlar.

Misrda ham suyak shamollashi kabi kasalliklarni davolashda gimnastika mashqlariga ustivorlik berganlar. Rimlik ulamo Oribozning eramizdan oldingi 360 yilda yaratgan to'plami terapevtik gimnastikaga

¹⁷ Hamidova, M. A. (2022). MUSIQADA RITM VA RITMIK HARAKATLARNING SHAKLLANISH JARAYONLARI. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 1302-1305.

bag'ishlangan bo'lib, unda ham ritmik harakatlarning inson reproduktiv salomarligiga ta'siri yoritilgan ».

K.Galen skelet-mushak tizimining turli xil kasalliklari, moddalar almashinuvining buzilishida tana gimnastikasining muhimligini aniqlagan, mashqlar tizimini ishlab chiqqan hamda shu orqali ko'plab bemorlarni davolagan.

Abu Ali Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" va "Shifo kitobi" asarlarida umumiy tana gimnastikasi ko'plab kasalliklarni davolash mumkinligini keng yoritgan va bir qancha davolovchi gimnastik mashqlarni ishlab chiqqan.

Nemis shigfokori F. Xoffmann (1660-1742) o'zgacha davolash usulini yaratdi, unda tana gimnastikasi muhim o'rinni egallaydi. Uning fikricha harakat-bu tana uchun eng yaxshi davo.

J.Tissotning (1750) «Медицинская и хирургическая гимнастика» nomli asarida hamda (1780), «Врачебная гимнастика, или Упражнения человеческих органов по законам физиологии, гигиены и терапевтики» deb nomlangan asarida harakat orqali davolashga kata ahamiyat berilgan. Uning fikricha harakat istalga malhamnig o'rnini bosadi, ammo harakat orqali olinadigan natijaga dori-darmonlar bilan erishib bo'lmaydi.

Rossiyaga gimnastik harakatlar orqali davolash usullari XVI-XVII asrlarda kirib keldi, jadal rivojlanishi XVIII asrnig ikkinchi yarimiga to'g'ri keladi. Russ anatomo-akademiki A. П. Протасов harakatda bo'lish sog'liqni saqlash uchun zarur degan fikrni ilgari surdi.

Ritm insonning barcha a'zolariga ijobiy ta'sir etishi bilan birgalikda uning nutqiy potologiyalarni korreksiyalashda ham o'z o'rniga ega ekani ilmiy manbaalardan ma'lum.

Ko'pgina tadqiqotchilar bola aqliy va motor rivojlanishining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydilar.

A. P. Лурья yuqori aqliy funktsiyalar senso-motor jarayonlarning nisbatan oddiy shakllari asosida paydo bo'lishini ta'kidlaydi. A. B. Запорожец, Л. А. Венгер, Н. С. Жукова, М. М. Кольцова, А. Н. Леонтьев, Д. Б. Эльконин larning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, harakatlar bola hayotining birinchi oylaridan boshlab uning aqliy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Harakatlar qanchalik xilma-xil

¹⁸ Курбатова, А. В., & Егорова, А. Т. (2009). Репродуктивное здоровье девочек-подростков. *Сибирское медицинское обозрение*, 50(2), 9-13.

bo'lsa, miya shunchalik ko'p ma'lumot oladi, bu esa bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

С. Г. Зыбелин (1775) sog'lom va kasal chaqaloqlar uchun maxsus mashqlarni tavsiya qildi. 1786 yilda П. М. Максимович-Амбодик harakatsizlikni turg'un suvga o'xshatdi. Uning ta'kidlashicha harakatsizlik tanani mog'orlanishiga, chirishiga olib keladi.

В.В.Гориневский «Спорт как средство, укрепляющее сердечно-сосудистую и дыхательную системы и его роль в мототерапии», «Мототерапия и физическая культура на курортах» va boshqa asarlarida davolovchi gimnastikaning rolini ilmiy asoslagan.

Hozirda ushbu usullar LFK deb yuritiladi va zamonaviy tibbiyotning barcha sohalarida o'zining ahamiyatiga ega. Uning asoschisi russ olimi В. Н. Мошков (1903-1997) tomonidan davolovchi jismoniy tarbiyaga olid bir qancha terapevtik usullar yaratgan. ¹⁹

Bularning barchasi ritm va ritmikaning inson organizmiga ijobiy ta'sirini isbotlaydi. Ritm va ritmikaning inson bilish jarayonlariga, ayniqsa nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'siri nazariy va amaliy tomondan isbotlangan. Bu logoritmika ta'limotidan ma'lum bo'lib, unga ko'ra nutqida kamchiligi bo'lgan insonlarning nuqsonlarini musiqa, ritm, so'z uyg'unlashuvi orqali bartaraf etish ko'zda tutiladi.

В. М. Бехтеев ritmik ta'sir etishning maqsadlarini quyidagilarga ajratadi: Ritmik reflekslarni aniqlash, bola organizmini turli xil qo'zg'atuvchilar (eshituv va ko'ruv) ga moslashuvini ta'minlash, bola asab tizimi faoliyatining mutanosib ishlashiga erishish, haddan ziyod qo'zg'aluvchan bolalarni tinchlantirish hamda tormozlangan bolalarni qo'zg'atishga erishish, shu bilan birgalikda, noto'g'ri hamda ortiqcha harakatlarni idora etish.

В. А. Гиляровский ning yozishicha, logopedik ritmika motorikaga, tananing umumiy tonusiga, kayfiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi, undan tashqari, logopedik ritmika markaziy asab tizimining tolalarini harakatga keltirishga xizmat qiladi.

Е. В. Чаянова, Е. В. Конорова lar logopedik ritmika insonning bilish foliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi deb hisoblaganlar.

¹⁹ Третьякова, Н. В. Т 66 Лечебная физическая культура и массаж: учебное пособие / Н. В. Третьякова. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2013. 357 с. ISBN 978-5-8050-0496-5

V. A. Griner va nemis tadqiqotchisi K. Kohler (Crista Kohler) va K. Shvabe (Chr. Schwabe) ta'kidlashlaricha logopedik ritmikadan psixoterapevtik usul sifatida foydalanish yaxshi samara beradi.

Logopedik ritmikaning inson nutqini tuzatishdagi ahamiyati borasida V. A. Griner, N. S. Samoylenko, N. A. Vlasova, D. S. Ozeretskovskiy, Yu. A. Florenskaya lar yozgan. Ular inson psixofiziologiyasida uchraydigan nuqsongacha ritmning umumpedagogik ta'sirini alohida keltirib o'tganlar.

Pedagogika fanlari nomzodi, professor G. A. Volkova (1976) turli xildagi reabilitatsiya usullarida foydalanish mumkin bo'lgan logoritmik usullarni amaliyotga taqdim etdi. U o'zining "Логопедическая ритмика" nomli o'quv qo'llanmasida logopedik ritmikaning nazariy asoslarini jamlagan bo'lib, fikricha, logopedik ritmikani turli xil nuqsongacha bo'lgan insonlarning nutqini rivojlantirishda, umumiy tana harakatlarini aktivlashtirishda, istalgan reabilitatsion metodikaga uyg'un holatda olib borish orqali turli xil anomaliyalarga ega bo'lgan insonlarni davolash va o'qitishda foydalansa bo'ladi. Olim logopedik ritmikani ayniqsa nutqiy nuqsongacha bo'lgan insonlarga ta'siri beqiyosligini ta'kidlaydi.

G. A. Volkova logoritmikaning ilmiy asoslari etib biologik, psixologo-pedagogik hamda musiqiy kabi ixtisoslashgan ta'limotlarning yig'indisi deb belgilaydi, hamda uni amalga oshirishda inson organizmni biologik omil sifatida bilish lozimligini ta'kidlaydi.

I. M. Sеченова va I. P. Pavlov larning ta'limoti inson oliy asab tizini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning ta'limoti logoritmik ta'sir etishda miyadagi nutq zonalarida yuz beradigan o'zgarishlar dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

H. A. Бернштейн esa nutqiy faoliyatni harakatning oliy darajasiga tenglashtirgan.

Sovet psixologlari M. O. Gurevich, A. A. Леонтьев, A. P. Лурия lar nutq va harakat analizatorlari o'rtasidagi aloqani, nutq va ekspressiv harakatlar, hamda nutq shakli va harakatlarning xuq-atvoridagi bog'liqlikni aniqlaganlar.

Logoritmika ta'limida mayda qo'l motorika va nutq rivojlanishi o'rtasidagi aloqa muhim hisoblanadi.

Fiziolog M. M. Кольцова ning fikricha qo'lning mayda motorikasi qismlari artikulyatsion apparat kabi nutq organidir. Shu nuqtai nazardan

kelib chiqqan holda olim qo'l proeksiyasi miyadagi yana bir nutqiy zona ekanini ta'kidlaydi.²⁰

L. B. Шапкова artikulyator motorikani rivojlantirish uchu logoritmik mashqlarni bajarishni taklif etadi. Muallifning ta'kidlashicha, tananing barcha a'zolari ishtirokida harakatli mashqlarni aniq va to'g'ri bajarish, artikulyator motorikani nutqiy jarayonga tayyorlaydi hamda uning harakatlarini yaxshilashga yordam beradi. Umumiy yoki mayda motorika harakatlarini bajarish jarayonida qisqa she'rlar aytish nutqning ritmik ohangini yaxshilaydi, bu esa o'z o'rnida, to'g'ri artikulyatsyaning shakllanishiga, nutqiy nafasni taqsimlashga va nutqiy diksiyaning rag'batlanishiga olib keladi.

I. P. Павлов nutqiy jarayonni eng avvalo nutqiy organlar orqali po'stloqqa yuboriluvchi kinestetik qo'zg'atuvchilar sifatida ikkilamchi signallar, ya'ni signallar signali sifatida tafsiflaydi.²¹

Tadqiqot davomida fonetik ritmikaning neyrologopediya sohasiga ham bog'liqlik tomoni mavjud ekanligi aniqlandi. Neyrologopediya logopediyaning bir tarmog'i bo'lib. Bu yo'nalish (1950-1960) fanga yangi yongashuv sifatida kirib keldi. Neyrologopediya – inson psixik sohasi (psixofiziologik nuqsongacha darajasiga bog'liq bo'lmagan) rivojlanishidagi kompleks yetishmovchiliklarni diagnostika, korreksiya va reabilitatsiya qilish kabi usullar majmuasidir.²²

Neyrologopediya nevropsixologiya, neyrodefektologiya va logopediya sohalari negizida rivojlanadi, hamda og'ir nutqiy nuqsongachalarni bartaraf etishda qo'llaniladigan kinezioterapiya, neyrogimnastika, LFK va boshqa harakatli jarayonlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy logopedik va logoritmik usullar natija bermaganda, neyrologopediyada maxsus mashqlar orqali bemorning markaziy asab tizimidagi belgilangan zonalarga impulslar jo'natiladi, natijada og'ir nutqiy nuqsongacha (dizartriyaning barcha turlarida, afaziyada, alaliyada) larning miyadagi paydo bo'lish lokatsiyasida qo'zg'atish va

²⁰ Кольцова М. М. Двигательная активность и развитие функций мозга ребенка. М., 1978, с. 132.

²¹ Шапкова, Л. В. (2002). Коррекционные подвижные игры и упражнения для детей с нарушениями в развитии. М.: Советский спорт, 212, 1.

²² Г. А. Волкова Логопедическая ритмика. Учебное пособие. Москва Провсвещение 1985 г. стр.10-14

²³ И. С. Кушнер, А. В. Цветков 1965 Нейрологопедия: диагностика и коррекция тяжелых нарушений речи у дошкольников. – М.: «Издание ВНИИ имени», 10-11 бет.

harakatlanish sodir bo' ladi, bu o' z o' rnida shu zonaning aktivlashishiga olib keladi (Г.А. Лурья).

Psixologiya fanlari doktori, professor Т Г Визель tomonida neyrodefektologiya hamda neyrologopediyaning ahamiyati va uning turli nuqsonlarga ega bo'lgan insonlarning nafaqat nutqiy imkoniyatlarini, balki oliy psixik faoliyatlariga ta'siri borasiga tadqiqotlar olib borgan, uning fikricha nutq buzilishlarini tashhishlash, oldini olish va bartaraf etishda faqatgina nuqsonning fenomenologik tomoninigina emash, balki, potologik jarayonning miyadagi mexanizmini ham inobatga olish zarur.²⁴

Neyrologopedik ta'sir etishda asosiy e'tibor, nutq bilan birgalikda, butun ONF (oliy nerv faoliyati) tizimini tashkil etish uchun umumiy va mayda motorikaning aktiv harakatlarini (keng maydonni talab etuvchi haraktli mashqlar) haqiqiy narsalar yoki realistik o'yinchoqlar bilan predmetli faoliyatni tashkil etishga qaratiladi.²⁵

Bulardan kelib chiqqan holda, neyrologopediyada ham neyrodefektologiyada ham harakatli mashqlarga ustivorlik berilar ekan, kinezioterapoya va neyrogimnastika usullari markaziy va periferik nerv sistemasodagi dagi nutq zonalariga impulslar jo'natib, korreksiyalansa, demak fonetik ritmik harakatlar ham xuddi shunday muvoffaqiyat bilan ONT dagi nutq zonalariga ta'sir o' tkazadi degan xulosaga kelish mumki.

Russ olimlari Т. М. Власова ва А. Н. Пфафенродлар o'zlarining "Фонетическая ритмика" deb nomlangan qo'llanmasida fonetik ritmik mashqlar kompleksini ishlab chiqib, 1986 yilda amaliyotga joriy etilganlar. Fonetik ritmika samarali usul sifatida rossiyada bugunga qadar surdopedagogika va logopediyada keng qo'llaniladi. Fonetik ritmika metodikasidan amaliy surdopedagogikada birinchi bo'lib "Suvag" nomli reabilitatsion markazda (Saxa respublikasi, Yakutiya) 1995 chi yilda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'zaki nutqni o'rgatish uchun foydalanilgan.²⁶ Bugungi kunga qadar fonetik ritmika eng samarali usullardan biri sifatida ishlatilib kelinmoqda.

²⁴ Визель, Т. Г., & Клевцова, С. В. (2020). Актуальные вопросы нейрологопедии. In *Современные методы профилактики и коррекции нарушений развития у детей: Традиции и инновации* (pp. 117-24).

²⁵ И. С. Кушнир, А. В. Цветков K965 Нейрологопедия: диагностика и коррекция тяжелых нарушений речи дошкольников. - М.: «Издательский дом», 2021. 16-17 бет.

²⁶ <http://www.suvag.net/istoriya-tsentra/http>

Т. М. Власова ва А. Н. Пфафенродлар (1989y) ning ta'rifiga ko'ra fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) majmuasi bo'lib, muayyan nutq materialining (iboralar, so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar) talaffuzi bilan uyg'unlashtirilgan nutqiy mashqlari tizimidir. Fonetik ritmika yaxshi kinezioterapiya hamdir va uning asosi ritm hisoblanadi²⁷.

Fonetik ritmik mashqlar nutqning tovushlar talaffuzi tomonini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.²⁸

Е. В Жулина ва И. Н. Теремец (Н.Ю. Костылева, Г.Г. Голубева, Н.В. Микляева, О.А. Полозова, Н.В. Вошилова ва boshqalar) fikricha fonetik ritmika usullari nutqni shakllantirish bilan birgalikda, bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga, kayfiyatini yaxshilashiga, organizmida qon aylanishini maromlashtirishga, mushaklar tonusini (maqsadga ko'ra) oshirish yoki pasaytirishga, mayda qo'l motorikasini rivojlanishiga hamda fazoviy tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.²⁹

Fonetik ritmika korreksion ta'sir etish usuli sifatida nutq ustida ishlashda kognitiv funksiyalar bilan tana motoriksaga yo'naltirilgan yondashuvlarni birlashtiradi. Tana bilan bajariladigan ritmik harakatlar artikulyator organlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida tovushlar talaffuzini rag'batlantiradi³⁰

Т.М. Власова, А.Н. Пфафенродлар tana harakatlarini talab qiluvchi jarayonlar turli xil psixik funksiyalardan (his-tuyg'u, idrok, xotira, o'zini o'zi boshqarish jarayonlari va boshqalar) foydalanishni nazarda tutadi. Tadqiqotchilar buni o'z navbatida nurqning rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qilashini ta'kidlaganlar.

М. V. Shved fonetik ritmika mashqlari ob'ektning kinestetik va kinetik imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan deb hisoblaydi. Bunday jarayonlarga pastki jag'ni mashq qildirish, lab mushaklari va

²⁷ https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sly7Y_8AAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=sly7Y_8AAAAJ.IWHjJKOFINEC

²⁸ Стулак, Л. А., Огородова, И. С., Чельшева, А. А., & Кимяева, С. А. (2017). Использование фонетической ритмики в коррекции речевых нарушений у дошкольников. Молодой ученый, (8), 371-374.

²⁹ Жулина, Е. В., & Теремец, И. Н. (2019). Значение фонетической ритмики в коррекции нарушений звуковой стороны речи у детей дошкольного возраста. Проблемы современного педагогического образования, (63-2), 173-176.

³⁰ Е. В. Николаева, Фонетическая ритмика - как одна из важных составляющих в формировании произношения и развития естественных движений у детей с нарушением слуха консультация по коррекционной педагогике. 2017

til harakatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Olim fonetik ritmika usulini sensomotorli tajriba deb ham atadi.

Н. В. Нищева, А. Е. Саввина, Р. А. Абашкина, Е. В. Жулина larning ta'kidlashicha, fonologoritmik mashqlar to'plamining tarkibida maxsus ishlab chiqilgan nafas mashqlari organizmning qon aylanishini, gazlar almashinuvini, bundan kelib chiqib o'pkaning barcha bo'limlarida havo aylanishini yaxshilaydi, qorin bo'shlig'i organlariga ham ijobiy ta'sir etadi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki, fonetik ritmika ham insonning butun reproduktiv salomatligini rag'batlantiradi. Undan tashqari, fonetik ritmika atrof olamda mo'ljal olishga, eshitganini idrok eta olish va taqlig qilishga ham o'rgatadi. Fonetik ritmikada harakat nutqni o'z ketidan ergashtiradi.³¹

Г. А. Карпова fonetik ritmika usuli kar va zaif eshituvchilarga vibratsion- kinestetik ga'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi hamda bu yo'l bilan ENB larning asosiy kompensator sezgilari orqali ONF ga yetib boradi va shu orqali bolalarda og'zaki talaffuzi shakllana boshlaydi degan fikrni ilgari suradi.³²

Tadqiqotchi Абашкина, Р. А o'zining izlanishlarida fonetik ritmikani eshitishida nuqsoni bor bolalarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yakka tartibda yondashish g'oyasini ilgari surgan.³³

Amerikalik logoped В. Tervurt aytishicha, o'z ovozi vibratsiyalarini his qilgan eshitishida nuqsoni bo'lgan chaqaloq ijobiy emotsiyalarni boshdan kechiradi, ammo keyinchalik bunday kechinmalar so'nadi. Bundan kelib chiqadi-ki, fonetik ritmika orqali ilk yoshdanoq ta'sirni amalga oshirish boshlansa, ko'nikmani shu holatni saqlab qolish va unga tayangan holda og'zaki talaffuz uchun poydevor yataish mumkin bo'ladi.

Е. З. Яхнина eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan musiqiy ritmika mashg'ulotlarining metodologiyasini tahlil etdi va bunday turdagi korreksion mashg'ulotlar tarkibida olib

31 М. В. Шаед Ю преподаватель кафедры коррекционной работы ВГУ им. П. М. Машерова г. Витебск, Республика Беларусь ФОНЕТИЧЕСКАЯ РИТМИКА В КОМПЛЕКСНОЙ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЕ ПО ПРЕОДОЛЕНИЮ НАРУШЕНИЙ ЗВУКОПРОИЗНОШЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ. 20 22

32 Карпова, Г. А. Основы сурдопедагогики [Текст] : учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Г. А. Карпова. – Екатеринбург : Издатель Калинин Г. П., 2008. – 354 с. – ISBN 978-5-901487-46-4

33 Абашкина, Р. А. Фонетическая ритмика как средство коррекции произносительных навыков детей с нарушениями слуха во внеурочное время / Р. А.

Абашкина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 25 (211). — С. 281-283. — URL: <https://moluch.ru/archive/211/51545/> [дата обращения: 16.01.2024].

boriladigan fonetik ritmika mashqlarining korreksion yo' nalganligini asosladi. Uning fikricha harakatlarning so'z bilan jarayonni xotirada sifatli saqlab qolinishinshiga ta'sir etadi, shuning uchu fonetik ritmika musiqiy ritmika mashg'ulotning asosiy qismini egallashi lozim."

Н. Д. Шматко fonetik ritmikani nutqiy ritmika deb atagan va bu usul orqali analitiko-sintetik metodini tushuntirdi. Uning fikricha nutqiy ritmikani eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq-talaffuz tomonini shakllantirish, rivojlantirish ishlarida nafaqat maktabgacha, balki maktab yoshida ham davom ettirish lozim.³⁵

Г.А. Карпова ta'kidlashicha surdopedagogikada fonetik ritmikaga eshituv xonasida, eshituv idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish hamda musiqiy ritmika mashg'ulotlarida talaffuz usrida ishlash bo'yicha usul sifatida qaraladi. U fonetik ritmikani nutqiy nafasni shakllantiradigan, ovozning tabiiy modulyatsiyasi, kuchi va balandligini hamda nutqning ritmik-intonnatsion tuzilishini rivojlantiradigan usullar qatoriga qo'shadi.³⁶ (111-112 b). Bu esa fonetik ritmika nutq prossodikasini ham rivojlanritadi degan fikrni keltirib chiqaradi.

Nutqning prosodik rivojlanishida uchraydigan muammolar ustida В.М.Бехтерев, Н.А.Власова, В.А.Гринер, В.А.Гиляровский, Н.С.Самойленко, Ю.А.Флоренская, Е.В.Чаянова va boshqa olimlar izlanishlar olib borganlar. Ularning fikticha prosodika bolaning jismoniy, axloqiy, intellektual va estetik tarbiyasiga ta'sir qiladi.



1.2 Jahonda va o'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim -tarbiyasi tarixi.

Ma'lumki, til vositasi yordamida inson muloqotga kirishadi, ushbu jarayonda axborot oladi, fikr almashadi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Kishilik jamiyatida ana shunday zaruriy ahamiyatni kasb

34 Яхнина, Е. З. Методика музыкально-ритмических занятий с детьми, имеющими нарушения слуха: Пособие для студентов дефектологических факультетов / под ред. проф. Б. П. Пузанова / Е. З. Яхнина. – М., 2003. 157-158 б

35 Шматко, Н.Д. Преемственность в системе работы над произношением детей с нарушениями слуха в дошкольных и школьных учреждениях [Текст] / Н.Д. Шматко // Дефектология. С. 45-51. 1999. - №5. – 45-47 б

36 Карпова, Г. А. Основы сурдопедагогики [Текст] : учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Г. А. Карпова. – Екатеринбург : Издатель Калинин Г. П., 2008. – 354 с. – ISBN 978-5-901487-46-4



etuvchi tilni o'zlashtirish faqat kishilarning o'zaro nutqiy muloqoti (kommunikatsiyasi) sharoitidagina amalga oshiriladi.

Nutqiy muloqotning yetarli darajada amalga oshishida eshitishning o'zni beqiyos bo'lib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok etish sanaladi. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili hisoblanib, u orqali insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi.³⁷

Har bir inson hayotining o'ziga xosligi va qadriyatlarining tan olinishi, bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash zaruriyati kabi insonparvarlik g'oyalari zamonaviy jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim ekanligi tobora keng anglanmoqda.³⁸

Qayd etilgan g'oyalar O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqaro miqyosda qabul qilinayotgan qator me'yoriy hamda xuquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topmoqda. Mamlakatimizda eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning, barcha sog'lom tengqurlari qatori, milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni hal etishda so'zlashuv nutqi asosiy o'rinni egallaydi.

Eshitishda muammosi bo'lgan insonlar haqida mulohaza yuritishdan avval ularning ta'lim tarbiyasini tashkil etish haqidagi tarixni eslamaslikni xato deb hisoblaymiz. Surdopedagogika tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Tarixiy manbaalardan shuni aniqladikki Yunon faylasufi Arastu (er.av. 384-322 y.y.) o'zining «Xis etuvchilarning xissiyotlari» va «Xissey idrok va uning ob'yektlari» kabi asarlarida sezgi organlarning o'zaro tobelik sabablari haqida fikr yuritib, karlik va soqovlikni bolaning aqliy layoqatlariga salbiy ta'sirini ochib berar ekan, soqovlikni tug'ma karlikning oqibati ekanligini qayd etadi. Olim sezgi a'zolaridan biri faoliyatining izdan chiqishi insonning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda

³⁷ Surdopedagogika Mamova Z.N. T-2017

³⁸ Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М.,

eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ulgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi». Faylasufning aynan mana shu fikrlari, uning o'zi bilmagani holda, surdopedagogik ta'limotning yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida muhim o'rin egallagan italiyalik professor Jerolamo Kardano «Naftliklar haqida», «Sezgilar fiziologiyasi haqida», «Mening hayotim haqida» kabi asarlarida tarixda birinchi bo'lib karlik va soqovlikning fiziologik asoslarini tushuntirib berdi, uning sabablarini, karlik ma'lum bir xastalik oqibatida yuzaga kelishi, soqovlik esa karlik oqibatida yuzaga kelishini ta'kidladi. Olim o'z farzandlari bilan o'tkazgan uzoq yillik tajribalari asosida karlarni o'qitishda sog'lom sezgi a'zolariga tayangan holda ish olib borilsa, yuqori natijalarga erishish mumkinligini isbotlab berdi.

Ispaniyalik rohib birinchi bor kar-soqov bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanganligi tarixdan ma'lum. Bunga o'sha davrdagi zodagon bir oilada yeshitmaslik nuqsoni irsiy bo'lgani sabab bo'lgan. Zodagonlarning buyurtmasiga ko'ra Pedro De Leon ular bilan shug'ullanadi. U o'z ishida og'zaki, yozma, daktil va imo-ishora nutqidan foydalanadi....³⁹

Jan-Jak Valad- Gabel (1800 yil)- zaif eshituvchilarni eshitadigan bolalar bilan bir joyda o'qitishni fikrini ilgati surdi. Aleksandr Blanshe (1817 yil) imo-ishora nutqidan voz kechgan holda daktil nutqidan foydalandi va onalik usulini joriy etdi.

X.P. Bonet (1579-1633) o'zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o'rgatish san'ati» Angliyalik J Vallis (1616-1703) va J.Bulver, Shveysariyalik J.K.Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687), E.R.Karrion (1579-1652) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o'qitishga o'z xissalarini qo'shdilar.

Ammo shu paytgacha ular uchun maxsus muassasalar tashkil etilmay qolaverardi...Faqat XIV asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha urinishlar yuzaga kela boshladi.

1770 yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo`lib Sharl Mishel de Epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab - kar-soqovlar instituti ochildi. Rossiya Federatsiyasida 19-20 asrlarda eshitishida muammosi borlarning huquq va erkinliklari oddiy odamlarnikiga tenglashtirilgan.

Imperatritsa Mariya Fyodorovna tomonidan (1806 yil) birinchi kar-soqov bolalar uchun talim dargohi tashkil etilib, 1810 yilda u Sank Piterburgga ko`chirilgan.⁴⁰ 19-20 asrlarda Rossiyada surdopedagogikaning jadal rivojlanish davri boshlanadi. Aynan shu davrda taniqli rossiyalik surdopedagog Fyodor Andreyevich Rau o`z faoliyatini olib boradi. U turmush o`rtog`i bo`lmish Natalya Aleksandrovna bilan Yevropada birinchilardan bo`lib kar bolalar uchun bog`cha tashkil qiladi...⁴¹ 1920 yilda karlarni o`qitish va tarbiyalash tizimining davlat tasarrufiga o`tishi munosabati bilan eshitishida muammosi bo`lgan shaxslar ta`lim tizimini tubdan isloh qilish masalalariga ahamiyatga molik ish sifatida yondashilishi yuzaga keldi.⁴²

O`tgan asrning 70-yillaridan boshlab butun dunyoda kadrlar ta`limi va ijtimoiy ahvoriga nisbatan yangi ijobiy yondashuvlar shakllana boshladi. 1975 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Nogironlar huquqlari haqida» deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan jamiyatni «to`laqonli ko`pchilik» va «noraso ozchilik» guruhlariga bo`lish yuridik jihatdan barham topdi.

Milliy pedagogikamiz asoschisi A.Avloniy til shaxs tafakkurining rivojlanishi,

uning ijtimoiy hayotda o`z o`rnini topishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta`kidlagan.⁴³

O`zbek surdopedagogikasining rivojlanishi Toshkentda 1919 yildan faoliyat yurita boshlagan O`rta Osiyoda dastlabki barcha nuqsonli bolalar birgalikda ta`lim olishlari uchun mo`ljallangan maktabdan 1922 yilda ilk kar bolalar maxsus maktab-internatining ajrab chiqishi bilan bog`liq.

Eshitishida muammolari bo`lgan bolalarni tabaqalab o`qitish (kar va zaif eshituvchilar) Respublikamizda 1965 yildan boshlandi. Ushbu yildan Toshkentda rus va o`zbek bo`limlaridan iborat 102-sonli zaif

40 <https://ppt-online.org/460261>

41 <https://ppt-online.org/356434>

42 Зайцева Г. Л. Диалог с Л. С. Выготским о проблемах современной сурдopedagogики // Дефектология. -1998. -№2 - 22 с.

43 Fayziyeva U. Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o`rgatish. ped. fan. nomz. dis.avtoref. – T.: TDPI. 1994. – 18 b.

eshituvchi va kech kar bo`lgan bolalar maxsus maktab-internati faoliyat ko`rsata boshladi. Rossiya maxsus maktablari yoki O`zbekistondagi umumta`lim maktablari, ba`zan aqli zaif bolalar maktablari dastur va darsliklarini biroz o`zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Tabiiyki, bir tomondan til tizimining to`g`ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me`yorda rivojlanayotgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitishida muammolari bo`lgan bolalar maktablari oldiga qo`yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi.

1968 yilda nashr etilgan «Alifbe» darsligi kar bolalarni o`qitish amaliyotining sifat jihatidan biroz yuqorilashini ta`minladi.⁴⁴

Nizomiy nomli TDPI defektologiya fakulteti qoshida 1983 yilda o`zbek tilida ilk bor «Surdopedagogika» bo`limining ochilishi sohaning nazariy, metodik jihatdan asoslab berilishini taqozo etgan bo`lsa, ikkinchi tomondan maxsus ta`lim tarmog`i rivojining ixtisoslashgan malakali surdopedagog-mutaxassislar bilan ta`minlanishi orqali jadallashuvini keltirib chiqardi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni o`qitish dastur va darsliklari, metodik qo`llanmalarining yaratilishi surdopedagogikaning olg`a borishiga omil bo`ldi. Respublika kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari ilk bor ilmiy – amaliy tadqiqot mahsuli hisoblangan hududiy, milliy mentalitet, o`zbek tili qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan o`quv dasturlari hamda darsliklari bilan ta`minlandi.

Respublikamizda milliy surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi o`tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikamizda olib borilgan qator tadqiqotlar mamlakatimizda mavjud eshitishida muammosi bo`lgan bolalar maxsus maktab-internatlar ta`lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, o`zbek tili xususiyatlariga mos holda takomillashtirish yo`l va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yo`naltirildi.

Mahalliy olimlarimiz X.M.Gaynutdinovning ilmiy izlanishlari natijasida ilk bor O`zbekiston sharoitida eshitishida nuqsoni bo`lgan shaxslarni kasbiy – mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar, bunday shaxslar ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko`tarish yo`llari ochib berildi.

44 (U. Fayziyeva «Alifbe», «Nutq o`stirish», N. Dadaxo`jaeva «Matematika» va b.) (1989 y.). Fayziyeva U. Yu. Zaif eshituvchilarni o`qitishda tayyorlash va savod o`rgatish. – ped. fan. nomz. dis.avtoref. – T.: TDPI. 1994. – 18 b.

tomonidan koxlear implantli bolalar eshituv-nutqiy reabilitasiyasining samarali omillarini aniqlash va korreksion ish mazmunini takomillashtirish ishlari olib borilib, e'tiborli jihati shunda-ki, tadqiqotchi koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy reabilitasiyasini baholovchi mezonlar nutqiy eshituv va kinestetik idrok tamoyillarini kompleks ta'sir (prognostik, prosessual, diagnostik)ning konsentrik bosqichlariga optimallasuvi asosida takomillashtirdi.

L.S.Vigotskiy o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan quyidagi sabablar bilan bog'laydi «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan ajralib qolishga, jamoa (kollektiv)dan ajralib qolish esa bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy tarbiyani, ham nutq rivojlanishini tormozlaydi. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimiga ega bo'ladi» degan fikri har zamonda o'z isbotini topgan.

Hozirda yana bir salmoqli tadqiqot ustida ish olib borilmoqda. U ham bo'lsa biz tomondan 3 yildan buyon amaliyotda sinalayotgan Fonetik ritmika metodikasining eshitishida muammosi bor bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash va samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlashdir.

T. M. Vlasova va A. N. Pfaferodlar ta'rifiga ko'ra "fonetik ritmika -bu harakatli mashqlar (bosh, qo'l, oyoq, tana) majmuasi bo'lib, ma'lum bir nutq materiali (iboralar, tovushlar, so'zlar,) ning turli xil harakatlar bilan uyg'unlashgan holatda talaffuz etish jarayonidir" ... deb aytilgan.

Yana bu kineziterapiyaning bir ko'rinishi bo'lib, uning asosida ritm yotadi... deydi rus olimlari T. M. Vlasova va A. N. Pfaferodlar o'zlarining "Фонетическая ритмика" deb nomlangan qo'llanmasida. Ushbu metodika 1996 yilda amaliyotga joriy etilgan va samarali usul sifatida rossiyada bugunga qadar surdopedagogika va logopediyada keng qo'llaniladi. Fonetik ritmika metodikasidan amaliy surdopedagogikada birinchi bo'lib "Suvag" nomli reabilitatsion markazda (Saxa respublikasi, Yakutiya)1995 chi yilda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'zaki nutqni o'rgatish uchun foydalanilgan.⁴⁷ Bugungi kunga qadar eng samarali usullaridan biri sifatida ishlatilib kelinmoqda. Bizning mamlakatimizda ushbu usuldan foydalanish birinchi bor ilmiy tomondan asoslanish arafasida.

⁴⁷ <http://www.suvag.net/istoriya-tsentra/http>

Shunday qilib eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi tarbi va bugunini ilmiy manbaalardan izlanish va tadqiqotlardan olgan ma'lumotlarimiz asosida tahlil etdik. Ularning jamoatlashuvi borasida qilinayotgan ishlarga biz ham hissa qo'shish bilan fan va soha rivojlanishi tarixining taraqqiy etishida ishtirok etmoqdamiz.

Eshitishida nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqining o'ziga xosligini pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda yoritilishi.

Insonlargagina xos bo'lgan nutq faoliyati — murakkab ruhiy faoliyat bo'lib, u ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning barkamol bo'lib voyaga yetishiga ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv o'rganlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni-harakat analizatori ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina karakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham karakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

T.A. Vlasova, R. M. Boskis⁴⁸, D. V. Neyman va boshqalarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, eshitishida nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligiga va og'irligiga bog'liqdir. Surdopedagogikada eshitishida nuqsonlari bor bolalar 3 guruhga bo'linib o'rganiladi:⁴⁹

- karlar;
- zaif eshituvchilar;
- kech kar bo'lganlar yoki eshituv qobiliyati zaiflashgan bolalar bo'lib o'rganiladi.

Ikkala go'daklik davrida, ya'ni, nutq paydo bo'lgunga qadar ikkala guruhning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan

⁴⁸ Т. М. Власова. Педагогическая классификация детей с нарушениями слуха <https://www.logopedmaster.ru>.

⁴⁹ Медицинская классификация лиц с нарушениями слуха Л. В. Нейман. <http://www.kspu.ru> > upload

bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so'ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishga xos kamchiliklar bo'laveradi. Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25—30% foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallinishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning xomiladorlik davrida bilar-bilmas doridarmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xinin, singari dorilarni), xomilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziiyasi — bituvi).

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlikka yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalarining keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi nervlarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi. Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi

karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'liq buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6—8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3—6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4—6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1—3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan — gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish — o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir. Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjast, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak deb aytilgan fikrni eshitganmiz. Ammo, agar bolada artikulyatsion apparat

a`zolarida kamchilik bo`lmasa, bolaning bu sohalarida o`rganik yoki funksional kamchiliklar bo`lmasa, nima uchun u yozma nutqdan yoki faqat imo-ishora nutqidan foydalanishi kerak?! Bu baxs-munozarali mavzu, shu boisdan, bizning fikrimiz bolajonlarimizni aynan kichik maktab yoshidan boshlab nutqiy va nonutqiy tovushlar bilan tanishtirish, ularga ovozni tanitish, ovoz orqali uni barcha tinglay olishini tushuntirish maqsadga muvofiq deb o`ylaymiz. Albatta, bu ish oson kechmaydi. Ammo, biz surdopedagoglar bolaning hayotda o`z o`rnini topib ketishiga zamin yaratib bergan bo`lamiz.

Maxsus ta`lim Yevropa va Amerika qit`alarining tobora katta hududlarini qamrab ola boshlagan bo`lsa, nodavlat tashkilotlarining shakllanishi esa karlarni o`qitish va tarbiyalash tizimining kelajakdagi rivojiga turtki beradi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Yevropa va Amerika surdopedagoglari «sof og`zaki metod» tizimida mavjud yuzakilikni bartaraf etish hamda uni takomillashtirishga harakat qildilar. Chunki bu tizim karlarni og`zaki nutqqa o`rgatishni asosiy maqsad qilib olgan holda, bolalarning umumta`lim fanlarini o`zlashtira olishlari imkonini bermas edi. Nemis surdopedagogi I.Geynike (1851-1942)⁵⁰ «sof og`zaki metod»ni eshitishda nuqsoni bo`lgan bolaning tabiatiga to`g`ri kelmaydigan metod sifatida tanqid qiladi. Dastlab u «imo-ishora metodi»ga qaytish taklifini bergan bo`lsa, keyinchalik kar bolalarni nutqqa o`rgatishni daktilologiyadan foydalanish asosida olib borishni taklif etadi. Konstantin Malish⁵¹ karlarni og`zaki nutqqa o`rgatish dastlabki davri uchun global (yaxlit (butun) so`z) sintetik metodini yaratadi. Bunda nutqqa o`rgatish yaxlit so`zlar va jummalarni talaffuz etishni gugulash negizida yo`lga qo`yish orqali amalga oshiriladi. Yana bir nemis olimi K.Gepfert⁵² (1851-1906) kar bolalarni yozma nutqqa o`rgatishni yozuv mexanizmi asosida amalga oshiradi. Uning izdoshlari esa o`qitishning dastlabki davrida yozma nutqni qo`llash g`oyasini rivojlantirdilar. Daniyalik olim Georg Forxgammer (1861-1948) tajribasi davomida yozma va og`zaki so`zlashuv metodlarini birlashtiradi hamda yozma mashqlar asosida og`zaki nutqni idrok etish va talaffuz qilishga tayanuvchi «imitatsiya (taqlid qilish) metodi»ni yaratadi. Rudolf Linder⁵³ uzoq yillik tajribalariga tayangan holda kar bolalarni tilga o`qitishda «yozma

⁵⁰ Карпова Г. А. "Оснiвы сурдопедагогикi" 2008

⁵¹ Konstantin Malish (1860-1925)

⁵² K.Gepfert (1851-1906)

⁵³ . Rudolf Linder (1880-1964)

obrazlar metodi»ga asoslanishni taklif etadi. Muallif 1911 yilda «So`z va rasmi» alifbosini yaratadi va unga ko`ra kar bolalar ko`rgazmalilikdan foydalangan holda o`qishga o`rgatish jarayonida yozma nutq egallab boradilar.«Belgiya metodi» deb nomlangan tizimning muallifi. M.Marschark, Harry G.Lang, John Albertini va Aleksandr Erlen tilga o`qitishda o`quvchilar og`zaki nutqni yozma so`zlarni yaxlit o`qish va labdan o`qish orqali idrok etishga o`rganishlarini yo`lga qo`ygan edi. E.Kern tomonidan taklif etilgan «yaxlit metod» «yozma metod» ning bir ko`rinishi bo`lib, ta`limning ushbu turi karlikka ega bo`lgan o`quvchilarni og`zaki nutqqa o`qitish jarayonida imo-ishora va daktil nutqni chiqarib tashlab, o`rniga yozuvdan foydalanish asosida olib borilar edi.

Otorinolingologiya sohasining rivojlanishi bilan eshitishda nuqsoni bo`lgan shaxslar ta`limi nazariyasi hamda amaliyotida ham ijobiy o`zgarishlar yuzaga kela boshladi. «Eshitish mashqlari metodi»ning muallifi V.Urbanchich eshitish qobiliyatini tadqiq etishda o`zi tomonidan yaratilgan maxsus moslama (Urbanchich garmonikasi) dan foydalanish samara berishini namoyish etgan bo`lsa, nemis olimi F.Besold (1842-1908) ham kar bolalar ta`limida eshitish qoldig`iga tayanish lozimligi va bunda «kamertonlar tizimi»ga tayanish lozimligini ko`rsatib o`tgan edi.Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o`rgangan rus pedagog va olimlari V.I.Fleri, J.Itar, V.T.Speshnevlar bunday o`quvchilar orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug`at boyligiga ega bo`lgan, ba`zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta`lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta`kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o`ziga xos rivojlanishiga alohida e`tibor qaratganliklariga guvoh bo`lamiz. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va ayniqsa, onasi alohida g`amxo`rlik, e`tibor ko`rsatishi zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o`rin tutishini ta`kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo`lsa, uning o`zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo`ladi», - deb yozadi.

Olim, shuningdek, dastlabki soʻzlarni bola koʻrish asosida» 1900 yilda F.A.Rau va N.A.Raular tomonidan Rossiya, xususan, Yevropada ilk bor kar bolalar bogʻchasi tashkil etilib, unda kar bolalar ogʻzaki nutqini shakllantirishga qaratilgan ishlar yoʻlga qoʻyildi. 1920 yilda karlarni oʻqitish va tarbiyalash tizimining davlat tasarrufiga oʻtishi munosabati bilan eshitishda muammosi boʻlgan shaxslar taʼlim tizimini tubdan isloh qilish masalalariga ahamiyatga molik ish sifatida yondashilishi yuzaga keldi. Tarixan barham topgan oʻqitish tizimlari zamonaviy surdopedagogikaga muhim boʻlgan muammolar majmuasini meros qilib qoldirdi-ki, ularning yechimiga oʻtmishda boʻlgan turli-tuman yondashuvlar haqida maʼlumotga ega boʻlgandagina hal etish mumkin. Har bir yondashuvlar oʻzining mazmuniga ega boʻlishi, hal etish yoʻllarining turli-tuman boʻlishiga qaramay, barchasining diqqat markazida kar bolalarni tilga oʻqitish jarayonini qanday qilib ularning umumiy rivojlanishlari bilan bogʻlash, ularning aqliy rivojlanishini toʻxtatmay turib, nutq shakllaridan qay tarzda va qanday ketma-ketlikda foydalanish orqali soʻzlashuv nutqiga, atrofdagilar bilan muloqot qilishga, oʻqish va yozishga oʻrgatish kabi muammolarning echimini topish muhim oʻrin egallagan edi.

Respublikamizda surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi oʻtgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikamizda olib borilgan qator tadqiqotlar mamlakatimizda mavjud eshitishda muammosi boʻlgan bolalar maxsus maktab-internatlar taʼlim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, oʻzbek tili xususiyatlariga mos holda takomillashtirish yoʻli va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yoʻnaltirildi. Surdopedagogika sohasida ilk bor N.Sh.Bekmurodov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida hududimizga mos ravishda maxsus maktab-internatlar kun tartibi, oʻquv jarayonini tashkil qilishda hisobga olinishi lozim boʻlgan talablar ishlab chiqilgan boʻlsa, X.M.Gaynutdinovning ilmiy izlanishlari natijasida ilk bor Oʻzbekiston sharoitida eshitishda nuqsoni boʻlgan shaxslarni kasbiy - mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar, bunday shaxslar ijtimoiy moslashuvlari darajasini koʻtarish yoʻllari ochib berildi. Alimxodjayevaning uzoq yillik amaliy tajribasi maxsus oʻqitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning tabaqalangan

⁵⁵ Вопросы обучения и воспитания детей с нарушениями слуха / Под ред. М.И. Кузьмицкой. М., 1994. - 135 с. 15.

metodikasini ishlab chiqish hisobiga zaif eshituvchi oʻquvchilar eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yoʻllarini ilmiy jihatdan asoslab berishga asos boʻldi

U.Yu.Fayziyevaning ilmiy-tadqiqot ishi zaif eshituvchi bolalarga ona tilini oʻrgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqot boʻlib, unda maktabga tayyorgarliksiz kelgan zaif eshituvchi bolalarning dastlabki nutqiy imkoniyatlari (soʻz boyligi: faol va nafaol nutqi), eshitishining yoʻqolish sabablari va vaqti oʻrganildi, bunday bolalarni savodga tayyorlash va savod oʻrgatish metodikasi ilk bor nazariy jihatdan asoslab berildi. Yaʼni tadqiqotchi zaif eshituvchi oʻquvchilarga savod oʻrgatish davrida zarur sanalgan omil - harflarni oʻtish ketma-ketligini ishlab chiqib, ushbu nazariy xulosalari asosida alifbe» darsligini yaratdi N. X. Dadaxoʻjayeva⁵⁶ ilk bor zaif eshituvchi oʻquvchilarning koʻp xonali sonlar ustida arifmetik amallarni bajarishlaridagi xususiyatlar, ushbu jarayonda oʻquvchilarning nutqi va fikrlashlariga oid tayyorgarlik holatini oʻrganib, koʻp xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishga oʻrgatish boʻyicha ish usullari hamda metodlarni nazariy jihatdan asoslab berdi.

F.U.Qodirova⁵⁷ ilmiy tadqiqotida eshitmaydigan boshlangʻich sinf oʻquvchilarining taʼlimi amaliyotidagi kamchiliklari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning samarali usul va yoʻllari aniqlandi hamda soʻzlashuv nutqini shakllantirishning omil va bosqichlari belgilab berildi.

Demak, koʻrib chiqilgan tadqiqotlardan U.Y.Fayziyeva hamda F.Qodirovalarning ishlarigina kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida oʻzbek tili oʻqitish tizimini ilmiy asoslab berishga qaratilgan. Maktab yoshidagi bolalarni tadqiqot obyekt sifatida tanlab olgan har ikki olim ularning maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olishiga maktabgacha yosh davrida zamin yaratilishi lozim ekanligini qayd etadilar. U.Fayziyeva: «Erta ilk yoshidan korreksion taʼsir koʻrsatish orqali bu ogʻir asoratlar kamaytirilishi yoki butunlay bartaraf etilishi mumkin...Ota-onalar imkon topgan holda uyda alohida sharoit yaratib, eshitmaydigan farzandlari bilan oʻzlari shugʻullanishlari mumkin. Buning uchun ular surdopedagog mutaxassis bilan hamkorlikda ish olib borishlari lozim», - degan fikrlarni keltirsa, F.U.Qodirova kar oʻquvchilarga oʻz fikrini erkin ifodalashni oʻrgatish ota-onalarning

⁵⁷ U. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova СУРДОПЕДАГОГИКА малака ошириш институтлари ва педагогика институтлари учун уқув кулланма Тошкент-2012

farzandlari ta'lim-tarbiyasi oldidagi mas'uliyati ekani va bu ta'lim jarayonida muhim omillardan hisoblanishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda surdopedagogikaning yondosh tarmoqlari – oligofreno-pedagogika, logopediya sohasidagi L.R.Mo'minova, R.Shomaxmudova, M.Y.Ayupova, X.M.Po'latova, D.A.Nurkeldiyev, M.P.Xamidova, L.Sh.Nur-muxamedovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maxsus ta'lim muassasalarida olib boriluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etish hamda takomillashtirishga qaratildi.*

Aynan nutq va harakat uyg'unligiga kelsak, ushbu ta'limot Logoritmika maxsus metodikasi bo'lib, uni ilgari surgan rus olimlari Volkova G.A., *Grinner A., Samolyonko N. S. Y. O. Filitova, N. N. Goncharova, E. V. Propenko, mahalliy olimlarimizdan Ayupova M. Y., Pulatova H. M. lar aynan nutqida nuqsoni bor bolalarning nutqiy nuqsonlarini korreksiyalashga qaratilgan metodikadir.

Yana ritmika metodikasi ham mavjud bo'lib, bu metodika sog'lom bolalarning ta'limotida mavjud bo'lib, bunda aynan musiqa va harakatning uyg'unlashishi ustivorlik qiladi. Ushbu metodika ustida Shvedsiyalik o'qituvchi musiqashunos E. J. Dalkroz, Alexandrova N. G., M. A. Rummerlar va boshqa ko'plab olimlar ish olib borganlar.

Tadqiqotimiz davrida ko'pchilik mutaxassislar bu uch metodokani differensiallash borasida savollar berganliklari boisdan, biz o'z yo'nalishimizda ilk bor, ilmiy manbaalarga asoslanib, ularni farqlashga doir izlanish olib borgik va jadval asosida farqladik.

1.3. Eshitiashda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.

Biz, insonlar borliq haqidagi tasavvur va bilimlarni ko'rish, eshitish, teri, ta'm, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi. Shu ma'lumotlarning 20 % eshituv orqali qabul qilamiz. Bu ma'lumot ilmiy isbotlangan.

Eshitish analizatori insonning barcha a'zolari ichida eng ahamiyatliaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. To'laonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy

58<https://hozir.org/mundarija-kirish-i-bob-muammoni-organishning-ilmiy-nazariy-aso.html?>

rivojlanishi sodir bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so'z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirlangan buyum va hodisalarni so'z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday buyum, hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o'rnatib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta'sir ko'rsatish quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zahirida paydo bo'lishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rgangan pedagog va olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar, Y.T.Speshnevar ular orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», - deb yozadi. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi. Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor

qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi».

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchi planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim».

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tallafuzga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topadi.

R.M.Boskis eshitishda muammosi bo'lgan bolalar tallafuzga o'rgatish samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiy-ning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibligi» psixologik ta'limotlariga tayanadi. Shuningdek, u eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi. Ushbu tasnifga ko'ra, birinchidan, yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi katta yoshdagilarnikidan farqli namoyon bo'ladi. Ya'ni katta

yoshdagi kishilarda eshitish muammosi paydo bo'lgunga qadar, ularning nutqi, mantiqiy tafakkuri va shaxsi shakllanib ulgursa, ilk yoshda orttirilgan eshitish muammosi bolaning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning o'ziga xos rivojlanishlarini to'g'ri tushunish uchun, ushbu holatda nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini, ya'ni eshitish va nutqning o'zaro aloqadorligini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, eshitishning buzilishi nutqning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan eshitishning me'yorga yaqinroq faoliyati bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Bolaning nutqiy darajasi qancha yuqori bo'lsa, eshitish qoldig'idan foydalanishi shuncha yuqori bo'ladi. Til, uning lug'at zaxirasi va grammatik tizimini inson qay darajada egallagan bo'lsa, uning o'z eshitishidan foydalanish layoqati ham shu darajada ko'p saqlangan bo'ladi. Nutqiy muloqot tajribasiga ega bo'lgan bolalar tanish bo'lgan so'z va jummalarni ma'nosiga ko'ra tushunishlari sababli, murojaat etilgan nutqni yaxshiroq idrok etish imkoniyatiga ega bo'lib, ular atrofdagilarda yaxshi eshituvchi sifatida taassurot qoldirishlari mumkin. O'z navbatida, bolaning eshitish qoldig'i qancha yaxshi saqlangan bo'lsa, unda atrofdagilar nutqiga taqlid qilishi asosida mustaqil ravishda nutqni egallab borish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Uchinchidan, bolaning eshitish qoldig'idan nutqni egallash uchun foydalanish imkoniyati uning eshitish muammosini baholash mezoni hisoblanadi. Shunga ko'ra eshitishi to'liq yo'qolgan (kar) bolalar bilan eshitishi qisman buzilgan (zaif eshituvchi) bolalarni chegaralashda aynan eshitish va nutqiy rivojlanish omillari hisobga olinadi.

Karlik eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hatto quloqqa yaqin bo'lgan masofadagi nutqni ravshan idrok etishning imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik, siddi total ko'zi ojizlik uchramagani kabi, juda kam uchraydigan hodisadir. Ko'pincha karlikda baland nutqiy bo'lmagan tovushlarni, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Audiometrik tekshiruv eshitishning 80 db. (detsibel – tovushni idrok etishni o'lchashda qo'llanuvchi o'lchov birligi)dan yuqori darajada yo'qolganini ko'rsatadi.

Zaif eshituvchilik eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda

mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi. Audiometr tekshiruvlari eshitishning 80 db.dan kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.

Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darajasi quyidagi to'rt omilga tobedir:

1. Eshitishning darajasi;
2. Eshitish muammosining sodir bo'lish vaqti;
3. Bolaning individual xususiyatlari;
4. Eshitish muammosi sodir bo'lgandan so'ng bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit.

Shundan kelib chiqqan holda har ikki guruhdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar, o'z navbatida, yana ikkitadan guruhga bo'linadi:

Karlar:

1. Tug'ma yoki ilk yosh davrida eshitish qobiliyati yo'qolgan va nutqni egallay olmagan kar bolalar;

2. Eshitish qobiliyati kech yo'qolib, nutqi saqlanib qolgan kar bolalar.

Zaif eshituvchilar:

1) Nutqida qisman chetga chiqishi (nutqining grammatik tizimida me'yordan chetga chiqishlar: qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash yoki tushirib qoldirish, ba'zan talaffuz muammolari) bo'lgan zaif eshituvchi bolalar;

2) Chuqur nutqiy muammolarga ega bo'lgan (lug'at zaxirasi o'ta chegaralangan, nutqi qisqa, noto'liq so'zlardan, grammatik tizimi so'z-gapdan, bo'g'in-so'zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchi bolalar.

Olim bu boradagi izlanishlarini davom ettirar ekan, har qanday bolaning rivojlanishi muloqotda, faoliyatning turli shakl va ko'rinishlarida amalga oshishi omilini hisobga oladi. Tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatdi-ki, kar va zaif eshituvchi bola bir-biridan keskin farq qiladi. Zaif eshituvchi boladagi inson uchun o'ta zarur bo'lgan analizator - eshitish faoliyatining to'liq emas, qisman buzilishi nutqning birmuncha shakllanishiga imkon beradi. Lekin bunday yo'l bilan nutqni egallashning o'ta chegaralanishi bola tomonidan tushuncha va tasavvurlar (nutqning keyingi idroki va tushunilishi)da o'zgachalikni yuzaga keltiradi. Zaif eshituvchi bolaning nutqi rivojlanmasdangina qolmay, balki buzilgandir ham. Masalan, lug'at zaxirasining kamligi bilan bir qatorda so'zlarning boshqa ma'noda

qo'llanishi, grammatik tizimning rivojlana olmasligi bilan bir qatorda ular ma'nolarining noto'g'ri tushunilishi kuzatiladi. Bularning barchasi bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi: taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi psixik jarayonlar zaif eshituvchilarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Nutqiy muloqot bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Zaif eshituvchi bola nutqining o'ziga xos rivojlanishi oddiy sharoitlarda ilm asoslarini egallashga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ham bu toifadagi bolalar anomaliyasi tuzilishida nutq birinchi o'ringa qo'yilib, maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida markaziy o'rinni nutqni reja asosida shakllantirish masalasi egallashi lozim.

Qator tadqiqotlar zaif eshituvchi bolalar tallafuzga o'rgatish xususiyatlari hamda bunday o'ziga xoslikka mos kelmaydigan mavjud o'qitish jarayonini taqqoslash natijasida tilni maxsus o'qitish muammolarining ilmiy jihatdan hal etilishi: uni psixologik, lingvistik, psixolingvistik, umumdidaktik hamda metodik nuqtai nazardan ishlab chiqilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu tavsiya etilgan metodikalar asosida yangi tur - zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun qator darsliklar va ularni olib borish imkonini beruvchi metodik tavsiyalar yaratildi.

Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili - tallafuzga o'rgatish ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, ota-onalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqatgina maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqali emas, balki bevosita ota-onalar va atrofdagilarning ishtiroki orqali ta'minlanishini uqtirsa, R.M.Boskis: «Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim», -deb ta'kidlaydi.

Aynan yangi davr surdopedagogikasida oila va maxsus ta'limning bola tarbiyasi borasidagi mushtarakligi zarurati anglandi: ota-onalar surdopedagoglar tomonidan belgilangan yo'l va ko'rsatmalarsiz farzandlarining tarbiyasida va, xuddi shunday tarzda, surdopedagoglar ota-onalar ishtirokisiz o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Ilk yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari asoschilari tomonidan yaratilgan maqola hamda metodik

tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalar ota-onalariga o'z farzandlarining tarbiyasini qanday tashkil etishlari, nutqini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarni yoritib berdi.


II BOB. KORREKTSION MASHG'ULOTLARDA ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN 0-1 SINIF O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH.

2.1 Eshitishida nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilari og'zaki nutqining rivojlanganlik darajasini aniqlash.

Biz tomondan Toshkent shahri 101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internatidan 10 nafar 0-sinf o'quvchilari va 10 nafar 1- sinr o'quvchilari hamda 106-sonli ixtisoslashtirilgan maktab internatidan ham 10 nafar 0-sinf o'quvchilari va 10 nafar 1- sinr o'quvchilari tanlab olindi va ta'kidlovchi eksperiment olib borildi. 0-1 sinf o'quvchilarining tibbiy ma'lumotlarini oldik.

101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internati eksperimental guruh o'quvchilarining o'rganilgan audiogrannalaridan namunalar keltiramiz:


1-raqamli audiogramma.



Bu yerda bolaning ikkala qulog'ining eshituv diapazoni detsebellarda ko'rsatilgan. Quyida har bir quloqning eshituv imkoniyati jadvalda ko'rsatilgan.

Гц	125	250	500	1000	1500	2000	3000
Дя							
Правое ухо	50	75	70	80	80	110	
Левое ухо	50	75	75	85	95	105	105

2-raqamli diogramma:



Гц	125	250	500	1000	1500	2000	3000
Дб							
Правое ухо		80	95				
Левое Ухо		Нет	реакции				

Aksariyat zaif eshituvchilarga qo`yilgan yakuniy tashhis 2 tomonlama sensonevral zaif eshituvchilikning III-IV darajasi. Eksperimentda biz tekshiriluvchi o`quvchining xaritasini tuzdik va har bir bolaning ko`rsatgan natijalarini xaritasiga kiritib bordik. (1-namuna).

Bunda 1 chidan, bolaning nonutqiy tovushlarni eshitib farqlashini tekshirdik, bunda biz tomondan xaritada ko`rsatilgan doira, metallofon, internet musiqiy tarmoqlaridan yuklab olingan mashina motori ovozi, poyezd shovqini, qushlar sayrashi, yomg`ir va momoqaldiraq ovozi bolaga yuqori balandlikdagi diapazonda eshittirdik. Natijalarni farqladi-farqlamadi deb xaritasiga belgilab bordik. Bolalar eshittirilgan tovushlarni tanib, nimaning ovozi yoki shovqini ekanini topishi lozim edi. Zaif eshituvchi bolalar quloq suprasi oldida transport shovqinini ajratdilar, ammo aynan qaysi transport ekanini topa olmadilar. (1- № rasmga qarang).


(1-namuna)

Текширилувчи ўқувчининг харитаси	
Ўқувчи ҳақида умумий маълумот:	
Ф. И. О.	
Туғилган сана ва йил	
Яшаш манзили	
Мақтаб ва синфи	
Мақтабга қабул қилинган вақти	
Ўқитувчи ва ота онанинг шикоят	
Мутахассис хулосаси (сурдолог)	
Диагнози	
Нонутқий товушларни эшитиши, топиши ва фарқлаши	


1. Муסיқали ўйинчоқлар 2. Транспорт шовқинлари 3. Табиатдаги шовқинлари	1.бубен, металафон _____ 2. машина мотори, поезд шовқини _____ 3.кушлар сайраши, ёмғир ва момоқалтирок _____
Умумий моторикаси ҳолатини текшириш	Бажара олди <input type="checkbox"/> Бажара олмади <input type="checkbox"/>
Ритми сезиб унга кўра ҳаракатларни бажариш кўникмасини текшириш	Бажара олди <input type="checkbox"/> Бажара олмади <input type="checkbox"/>
Нафасини текшириш	
Овоз кучини текшириш	
<p>● Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh Ii Jj Kk Ll Mm Nn Oo Pp Qq Rr Ss Tt Uu Vv Xx Yy Zz O'o' G'g' Shsh Chch ng ' Нутқий товушларни эшитиши, топиши ва фарқлаши</p>	
Нутқий товушларни оғзаки талаффуз этишини текшириш (1- концентр)	
Товушлар	
А	
О	
У	
И	
Э	
Ў	
П	
Т	
К	
С	
Ф	
Ш	
Х	
Л	
М	
Н	
Р	
На (а)	
Но (ё)	
Не (е)	
Ну (ю)	

0	Фонетик ритмика элементларини билишини текшириш	билади <input type="checkbox"/>
		билмайди <input type="checkbox"/>
	Ўқувчи фойдаланаётган мулоқот турини белгилаш	
	Умуман мулоқотга киришмайди	
	Имо-ишора	
	Оғзаки	
	Аралаш	
	Бошқа	
1	Сўз ва ибораларни эшитиб фарқлаши (болага таниш карточкали сўз ва иборалардан фойдаланиш)	фарқлади <input type="checkbox"/>
		фарқламади <input type="checkbox"/>
2	Артикуляцион аппаратнинг анатомик тузилиши ва ҳаракатчанлиги	
	Лаблар тузилиши ва ҳаракатчанлиги	
	Тил тузилиши ва ҳаракатчанлиги	
	Тишлар ҳолати	
	Жағлар нуқсони	
	Қаттиқ танглай ҳолати	
	Юмшоқ танглай тузилиши ва ҳаракатчанлиги	
3	Тадқиқотчи хулосаси:	
	" " йил	
Тадқиқотчи :		

2 chidan bolaning umumiy motorika holatini tekshirdik. Bunda har xil dinamik va statik mashqlar bajarildi. Bolalarga statik holatlarni tutib turishda qiyinchilik kuzatildi. Ammo, dinamik mashqlar nisbatan



42



43

yaxshiroq bajarildi. Natijalarni "bajara oldi" yoki "bajara olmadi" deb belgilab bordik.

3 chidan bolaning ritmni sezishi va unga ko'ra harakatlarni bajarish ko'nikmasini tekshirdik. Bunda oyoq bilan yerga urgan holatda oyoqdan seziladigan ritmni hosil qildik va bolaga tanlangan harakatni bajarishni taklif etdik. Oyoq kinestetik sezgilari orqali ritmni sezishda har bolalar boshqa bosqichlardan ko'ra yaxshiroq natija berdilar. Bunda ham bajara oldi, bajara olmadi kabi belgilarni qo'ydik.

4 chidan bolalardagi nutqiy nafasni tekshirdik. Bunda biz bolalarning nafasi ko'krakli yoki diofragmali ekanini aniqladik va zarifaga belgilab bordik. Kar bolalar, ko'pincha, qisqa va ko'krakli nafas olib ekan, ammo, zaif eshituvchi bolalar nafasi qorinli bo'lib, ular chuqur nafas olib, so'ng imo-ishora nutqi va daktilemadan foydalanishdi. Ammo, shu jarayonda so'z va jummalarni ovozsiz talaffuz etishini ko'rdik.

5 chidan ovoz kuchini tekshirdik. Bunda ovozi bor, yo'qligi, manqali ottenok bor-yo'qligi, falsetli, bo'g'iq, past, zaiflashgan kabi holatlariga ko'ra ajratdik va natijada ovozi past bolalar ko'krakli nafas olishini aniqladik.

6 chidan nutqiy tovushlarni eshitishib topishi va farqlashi tekshirildi. Shu yerda avval 1- konsentrdagi tovushlarni tekshirdik, ulardan so'ng v, b, d, g, ch, j larning holatini o'rgandik. Bunda biz bolaga uning eshituv imkoniyatiga mos diapazonda turib, unilardan boshlab talaffuz etdik, bunda, albatta, bola artikulyatsion apparatni yaqqol ko'rib turishi kerak. Natijada, zaif eshituvchi bolalar unli tovushlarni yordamchi tovushni qo'yish bilan, manqali talaffuz etdilar (a---â, u---uv va hokazo). Jarangli undoshlar jarangsizlantirildi, sh tovushi shunchaki nafas chiqarishdek ko'rinishda namoyon bo'ldi. Burin tovushlari m-mb; n- ing dek eshitildi, titroq tovush, aksariyat holatlarda, nutqda yo'qligi bilan xarakterlandi. Kar bolalarda esa, barcha tovushlarida manqalanish bor. Yolashgan unililar, masalan -ya, yo, yu, ye lar ang tovush birikmasi bilan ifodalandi. v---ṽ, b---b̃, d---đ, g---g̃, kabi eshitildi. ch---i j--- umuman eshitilmadi.

7 chidan fonetik ritmika elementlarini bilishini tekshirdik. Bolalarga unli tovushlar fonetik ritmikasin ko'rsatishni taklif etdik.

Bolalar ushbu topshiriqni tushunmadi. Ammo, keyin, bizga taqlib qilish bilan, topshiriqni bajardilar.

8 chidan o'quvchi foydalanayotgan muloqot turini aniqladik. Bunda bolalar bilan diolog olib bordik. Jarayonda bolalarning barchasi imo-ishora nutqidan foydalanishdi. Og'zaki nutqdan foydalana olishmadi. Og'zaki gapirishni o'rganishni xoxlaysanmi degan savolimizga 40 tadan 34 nafari ha deb javob berdi.

9 chidan so'z va iboralarni eshitib farqlashini tekshirdik. Bunda bolalarga tegishli diapazonda so'zlar, iboralar aytdik, bola shu so'z yoki iborani yozuvli kartochkalardan topishi lozim edi. Bunda og'izni yopib turuvchi ekrandan foydalandik. Kar bolalar so'zlarni eshitmadi, zaif eshituvchilar eshitsuham, to'g'ri topa olmadi.


10 chidan artikulyatsion apparatning anatomik tuzilishi va harakatchanligi tekshiridik. Bunda lab, til, tishlar, jag'lar, qattiq tanglay, yumshoq tanglay holatlari ko'zdan kechirildi. Artikulyatsion mashqlar bajartirildi. Biz bunda logopedik oyna, stol lampasi, logopedik zondlardan foydalandik. Bolalarimizning ayrimlarida til osti yuganchasi kaltaligi aniqlandi, progeniya va til uchining to'mtoqligi kabi kamchiliklari borligi aniqlandi, undan tashqari artikulyatsiya harakatlari muvofiqlashmagan va aniqligini ko'rdik. Keyinchalik fonetik ritmika orqali tovushlarni shakllantirish davrida shu holatlarni inobatga olib, bartaraf etishni rejalashtirdik.

Yakunlovchi belgi sifatida tadqiqotchi xulosasini berdik. Bunda biz bolalarning tibbiy tashhisi emas, balki 6 ta asosiy belgisi bo'yicha rivojlanganlik darajasini xarakterladik.

Bular:

- umumiy motorika holati;
- nutqiy nafasi;
- ovozidagi nuqsonlari;
- unli tovushlar nuqsonlari;
- jarangli undosh tovushlar nuqsonlari;

jarangsiz undosh tovushlar nuqsonlari. Olingan natijalar tahlilini yuqoridagi 6 ta belgi bo'yicha amalga oshirish uchun, diagrammaga soldik.



(1-diagrammada)

10 nafar 0-sinf kar o'quvchilari va 10 nafar 0-sinf zaif eshituvchi o'quvchilardan olingan natijalar ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, barcha belgilar bo'yicha zaif eshituvchi bolalar kar bolalarga qaraganda ustalik qilishmoqda.

Shu bilan, barcha belgilar bo'yicha zaif eshituvchi 0-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqni egallash imkoniyatlari yuqoriroq ekanini aniqladik.


0-sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning 5 ta xususiyat bo'yicha rivojlanganligi jadvali.

O'quvchilar soni va t/s	Umu miy motorika holati	Nut qiy nafasi	Ov ozi	U nli tovushl ari	Jara ngli undosh tovushlari	Jaran gsiz undosh tovushlari
10 nafar kar o'quvchi	4	3	3	2	3	3

10 nafar zaif eshituvchi o'quvchilar	6	5	5	6	4	6
--	---	---	---	---	---	---

(1-jadval)

Yuqoridagi 6 ta belgi bilan eshitishida muammolari bo'lgan 1- sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan ta'kidlovchi eksperiment natijalari 2- diagram mada berilgan.



(2-diagramma)

1-sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning 6 ta belgi bo'yicha rivojlanganligi jadvali.

O'quvc hilar soni va d/s	Umu miy motorika holati	Nut qiy nafasi	ov ozi	U nli tovushl ari	Jara ngli undosh tovushlari	Jaran gsiz undosh tovushlari
10 nafar kar o'quvchi	6	4	4	4	3	2
10 nafar zaif eshituvchi o'quvchilar	8	6	8	8	7	6

(2-jadval)

Bunda biz 10 nafar 1-sinf kar o'quvchilari va 10 nafar 1-sinf zaif eshituvchi o'quvchilarni 6 ta belgi bo'yicha ko'rsatgan natijalarini tahlil qildik va natijada 1- sinf zaif eshituvchi o'quvchilarning og'zaki nutq

egallash imkoniyati yuqoriroq ekanini aniqladik.

Olingan natijalar tahliliga ko'ra, diagrammada aks etganidek, kar o'quvchilarga qaraganda, zaif eshituvchi o'quvchilarda nutqiy tovushlarni talaffuz eta olish, talaffuz hususiyatlari, o'quvchilarning ovozi imkoniyatlari nisbatan yaxshiroq rivojlangani ko'zga yaqqol tashlandi. Shu boisdan mazkur ilmiy ishning rivojlaniruvchi eksperimentini har ikkala toifadagi eshitishida nuqsoni bor bolalar toifalari orasid olib borishni maqsad qildik.

Tanlangan 10 nafar 0- sinf va 10 nafar 1-sinf kar o'quvchilaridan, har ikki guruhdan 5 tadan o'quvchi nazorat guruhiga, qolgan 5 tadani tajriba guruhiga olindi. Zaif eshituvchi o'quvchilar toifasidan o'rganilgan 10 nafar 1- sinf va 10 nafar 0- sinf o'quvchilari orasidan 5 tadani tajriba, 5 tadani esa nazorat guruhiga olindi.

Natijada, nazorat guruhida ham, tajriba guruhidagi kabi o'quvchilarning umumiy soni 20 nafarni tashkil etdi.

№	Guruhlar.	Tajriba guruhida o'quvchilar soni	Nazorat guruhida o'quvchilar soni
1	0- sinf g/eshi o'quvchilar	5 nafar	5 nafar
2	0- sinf kar o'quvchilar	5 nafar	5 nafar
3	1- sinf g/eshi o'quvchilar	5 nafar	5 nafar
4	1- sinf kar o'quvchilar	5 nafar	5 nafar
Jami har bir guruhda:		20 nafar	20 nafar

(3-jadval)

Tajriba-sinov uchun mashg'ulotlarni individual hamda frontal tashkil etdik va 0-1 sinf zaif eshituvchi bolalarni A guruh deb, 0-1 sinf kar o'quvchilar guruhini B guruh deb nomladik. Shunday qilib, rivojlaniruvchi eksperiment uchun 2 ta guruh shakllantirildi.

Nazorat guruhidagi o'quvchlarni ham huddi shunday guruhladi va 2 guruh hamda D-guruhi deb atadik. Natijada, bunda ham 2 ta guruh tuzildi.

A va B guruhlarda tadqiqotchi tomonidan takomillashtirilgan "Quvnoq fonetik ritmika" elektron maxsus metodik to'plamdan foydalangan holatda, 18 oy, haftada 3 marotaba tajriba-sinov olib borildi.

2.2. Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmikaning rolini eksperimental o'rganish metodikasi.

Fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) majmuasi bo'lib, audial, visual, kinestetik ta'sir etish orqali nutqning prossodik tomonini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi korreksion texnologiyadir. Fonetik ritmikada nutq va harakat uyg'unlashtirilgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo'gin, matn) umumiy tana harahatlari bilan uyg'unlashtirgan holda talaffuz etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda nutq va harakat uyg'unlikda rivojlanishining filogenetik bog'liqligi isbotlangan. Nutq va harakat uyg'unligidan umumiy tana muskullaridagi zo'riqishlar yechilishi, eshitishida muammosi bor bolalarga xos bo'lgan artikulyator mushaklarning zo'riqishi ham yechiladi deyilgan. Buning natijasida eshitishida muammosi bor bolalar artikulyatsiya harakatlari muvofiqlashdi va aniqlashadi.

Fonetik ritmika mashqlarining vazifalari:

Eshituv va nutq harakat analizatori faoliyatini umumiy motorika rivojlanishi bilan bog'lash:

Umumiy nutq ko'nikmalarini nutqga o'tish jarayonida aniq intonatsiya va ritmik tomoni bilan eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalarning tabiiy nutqini shakllantirishga yordam berish;

O'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish va ularning talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish va tuzatish jarayonida qo'llash.

T. M. Vlasova va A. N. Pfafenrod "Фонетическая ритмика" maxsus metodikasi o'z ichiga:

nutqiy nafasni normallashtirish va unga aloqador nutqning birlashishi;

ovoz kuchini va balandligini o'zgartirish qobiliyatini shakllantirish, normal tembrni me'yordan qo'pol ravishda chetga chiqmasdan saqlash;

⁶⁰ (Власова Т.М., Пфафенродт А.Н. Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАД» 1996).

bo'g'inlar va so'z birikmalarida, so'zlarda hamda iboralarda tovushlarni va ularning kombinatsiyalarini to'g'ri takrorlash; nutq materialini ma'lum bir sur'atda takrorlash; turli ritmlarni his qilish, farqlash va takrorlash; his-tuyg'ularni turli xil intonatsion vositalar bilan ifodalash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlatini ta'kidlagan.

Qo'llanmada tovushlar va ularning kombinatsiyalarida ishlash bo'yicha tegishli bo'limlar mavjud; ritm va tezlik; nutq nafasi va birlashishi; ovoz va intonatsiya.

Barcha bo'limlar nutq ishlashida bir xil ahamiyatga ega va ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Jarayonlarning uyg'unlashuvi nutqiy nafasini normallashtirish va ovozni nazorat qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Nutqiy nafasini rivojlantirish mashqlari to'g'ri diafragmal nafasini shakllantirishga, nafas chiqarish jarayonining kuchiga va uzayishiga, hamda bosqichma-bosqichligini rivojlantirishga yordam beradi. Unli va undosh tovushlarni uzoq nafas chiqarishda mashq qilishdan boshlab ovoz ustida ishlash davri boshlanadi. Shu bilan birga, so'zdagi elementlar tahlili boshlanadi. Bu esa o'z navbatida tovushlarning aniq talaffuziga olib keladi.

Nutqiy nafasini, ovozni, temp va ritmini rivojlantirishga qaratilgan mashqlari musiqa bilan, hamda musiqa ishtirokisiz o'tkaziladi. Mashg'ulotlar tarkibiga talaffuz ishtirokisiz, faqatgina harakatli mashqlarni bajarish ham kiradi. Bu jarayon o'z o'rnida musiqiy ritmik ta'sir etish orqali bo'ladi. Bu mashqlarning maqsadi-nafasni normallashtirish, ritm hissini rivojlantirish, harakatni rivojlantirish. Bunday mashqlar ritmni his qilish va nafas apparatidan to'g'ri foydalanishni o'rgatadi. Undan tahqari, musiqa ostida harakatlar bajarish bolalarning motorikasini rivojlantirishda juda samarali usul hisoblanadi.

Nutqning talaffuz tomonini normallashtirishga qaratilgan mashqlar tizimida musiqiy qo'shiqsiz turli harakatlar bajariladi— tananing korpus harakati-oldinga, yonma-yon, 90, 180, 360 daraja burilishi; bosh harakati-o'ng, chap, oldinga, orqaga buriladi; qo'l harakati — yuqoriga, pastga, oldinga, yelkarni ko'tarish va tushirish, qo'llarning aylanma harakati; oyoq harakati — tizzalardagi bukkan va cho'zgan oyoqlarni yelka kengligida qo'yish va boshqalar.

Ushbu harakatlarning dinamikasi ham o'zgaruvchan bo'lib, sekinlashgan holatdan asta-sekin keskinlashadi.

Nutqiy nafas va nutqning uyg'unlashuvida foydalaniladigan mashqlar sekin-asta bajarilishi bilan tavsiflanadi.

Nutq, ovoz va harakatning intonatsiyasi ritmi va tezligi ustida ishlayotganda, tovushlar va hecelerin talaffuzida bajarilganlarni, shuningdek, qahqaha, rad etish va boshqalar bilan bog'liq tabiiy ishoralarni birlashtirib, tabiiydir.

Fonetik ritmda darslarni o'tkazish uchun tanlangan barcha harakatlar talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish va mustahkamlash uchun rag'batlantirish sifatida qaraladi. Sinflarda amalga oshiriladigan harakatlar oldindan o'rganilmaydi. Shuning uchun ular o'qituvchi bilan bir necha marta sinxronlashtiriladi (har biri 2-5 marta). Bolalar harakatlarni to'g'ri takrorlashni o'rgangach, takroriy sonlar kamayadi. Harakat o'z vazifasini faqat so'z, harf, tovush nutqda va harakat to'xtaganidan keyin to'g'ri amalga oshirilganda to'liq bajaradi. Shunday qilib, fonetik ritmni o'rganish jarayonida harakat nutqning shakllanishi yoki uni tuzatish maqsadga erishish vositasidir. Ushbu darslarning yakuniy maqsadi harakatlarsiz fonetik jihatdan to'g'ri mo'ljallangan nutqdir.

Ushbu muammoni hal qilish uchun bolalarning taqlid qobiliyatlari (vosita va nutq) va maksimal darajada — ularning eshitish hissi safarbar etiladi. Fonetik ritmdagi darslarda ovoz chiqaradigan asbob-uskunalaridan foydalanish kerak. Bu simsiz ovoz chiqaruvchi qurilma yoki alohida eshitish vositasi bo'lishi mumkin. Tanlangan uskunalar talabalarning harakatlanish erkinligini va yaxshi ovoz sifatini ta'minlashi kerak.

O'qituvchining mashg'ulotlari davomida bergan ko'rsatmalari, shuningdek, barcha nutq materiallari tinglovchilarga ingl. Biroq, bu bilan birga, faqat eshitish hissi ishlatiladi. Eshitish asosida ko'plab mashqlar vosita (yurish, chopish, ost-novki, sakrash) va nutq (oyatlarni o'qish, gapirish, savollarga javob berish, so'zlarni talaffuz qilish, hecelerle) amalga oshiriladi.

Quloqqa turli xil ritmlarni, mantiqiy stressni, intonatsiyani farqlash, his qilish va takrorlash uchun katta material taklif etiladi.

Mashqlarda talaffuzni o'qitishning analitik-sintetik printsiplarga muvofiq, butun so'z va uning elementlari (hecelerle va alohida tovushlar) ustida ishlash birlashtirilgan. Mashqlar materiallari so'zlar, heceler, heceler, shaxsiy tovushlar, shuningdek, iboralar, tillar, o'quvchilar, qisqa matnlar va she'rlar.

Nutq materiallari bolalarga tanish va leksik jihatdan mavjud bo'lib, darsning fonetik vazifalariga javob beradi. Harakatlar bilan birga aytilgan nutq materiallari fonetik ritmda darsning bir qismini oladi. Qolgan vaqt bu materialni bosqichma-bosqich aniqlash uchun beriladi: birinchi navbatda harakatlar bilan, keyin esa ularsiz. Oxirgi bosqichning maqsadi mustaqil nutqqa yaqin sharoitlarda erishilgan ko'nikmalarni avtomatlashtirishdir. Barcha nutq materiallari talaffuzni to'g'rilash va eshitish in'ikosini o'rgatish uchun ishlatiladi.

Barcha mashqlar taqlid qilish uchun amalga oshiriladi. Nutq materiallari oldindan o'rganilmaydi. Sinf davomida talabalar o'qituvchi bilan birgalikda aylanada turadilar. Ular o'qituvchilarni yaxshi ko'rishadi, o'qituvchi bilan bir vaqtning o'zida harakat qilishadi va gapirishadi. Ko'rgazmali namoyish va takroriy takrorlash o'quvchini to'g'ri tabiiy taqlid qilishga undaydi.

Agar mashg'ulotlar davomida ayrim elementlar ba'zi bolalarda olinmasa, unda bu elementlar ustida ishlash individual mashg'ulotlarga o'tkaziladi. Shunday qilib, fonetik ritmda oldingi mashg'ulotlarning tugallanmagan nutq materiallarining bir qismi yanada chuqurroq ishlash uchun individual mashg'ulotlarga o'tadi. Bunday harakatchanlik to'g'ri talaffuzni mustahkamlashga yordam beradi. Shaxsiy mashg'ulotlarni olib boruvchi har bir surdopedagog fonetik ritmda darslarda ishlatiladigan uslubiy ishlarni o'rganishi kerak.

Fonetik ritmika mashg'ulotlari o'qituvchi-defektolog tomonidan amalga oshiriladi, u tananing, qo'llarning, oyoqlarning, boshning turli harakatlarini to'g'ri va chiroyli bajara olishi kerak:

- chiroyli va ritmik tarzda musiqa va musiqasiz harakat qilish;
- harakatlar tizimini musiqa bilan turli sur'atlarda birlashtirish;
- o'quvchilarning harakatlaridagi xatoliklarni ko'ra bilish va tuzatishi;
- o'zi va o'quvchilarining harakatlarini tabiiyligi va qulayligiga taqlid qilishi;
- o'quvchilarining talaffuzidagi kamchiliklarni eshitishi va ularni tuzatishi;
- ko'rsatmalarda va nutq materiallarini uzatishda oddiy ovoz balandligi va kuchidan foydalaning.

Barcha holatlarda o'qituvchining nutqi taqlid qilish, fonetik jihatdan to'g'ri bezatilgan, hissiy jihatdan rangli bo'lishi kerak.

Qo'llanmaning tegishli bo'limlarida uslubiy tushuntirishlar, nutq tovushlari, ritm, tezlik, nutq nafasi va birlashishi, mantiqiy stress, intonatsiya va ovoz bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Tavsiya etilgan materiallardan o'qituvchi kitobda berilgan ketma-ketlikni saqlab, u eng munosib deb hisoblaydigan mashqlarni tanlashi mumkin.

2.3 NUTQIY TOVUSHLAR USTIDA ISHLASH

Fonetik ritmika mashg'ulotlarida jarayonida harakatlarni bajarish tovushlar va bo'g'inlar talaffuzi ustida ishlash bilan uyg'unlashuvi uch asosiy element bilan xarakterlanadi. Bular: zo'riqish, intensivlik, vaqt.

Tovushlarni talaffuz etishimizda, ishtirok etadigan turli artikulyatsion mushaklar guruhlari har xil holatga keladi, zo'riqadi yoki bo'shshadi. Motor harakatlarining aniqlashuvi muskullar harakatining sifatiga bog'liq. Nutq tovushlarining talaffuzi bilan birga keladigan harakatlarning o'ziga xosligini aniqlashda zo'riqish "zo'riqqan", "biroz zo'riqqan", "zo'riqmagan" degan iboralar bilan ifodalanadi.

Fonetik ritmni mashq qilishning boshidanoq, bu tovushlar bilan bo'g'inlarning talaffuziga hamroh bo'ladigan mashqlarni bajarishda bolalarni ongli ravishda harakatlarni tartibga solishga o'rgatish kerak.

Unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish va shu tovushlar ishtirokida bo'g'inlarni aytirish mashqlari asosiy 3 xil boshlang'ich "pozitsiya" holatdan boshlanadi:

1. Oyoqlarni birlashtirgan holda turish, qo'llar ko'krak darajasida egilib, tirsaklar pastga. Bu pozitsiyadan deyarli barcha tovushlar uchun harakat boshlanadi «i», «k», «l», «r» .

2. Tik turish, oyoqlar birlashgan, qo'llar tirsaklarda bukilgan, yelka darajasiga ko'tarilgan, tirsaklar orasi ochiq. Shu holatdan «i», «k», «l» tovushlari uchun harakatlar boshlanadi.

3. Tik turish, oyoqlarni birlashtirish, qo'llar ko'krak darajasida oldinga cho'ziladi. Bu «r» tovushi uchun.

Shu o'rinda muhim uslubiy eslatmani aytib o'tish joiz. Agar bolada unli larni alohida talaffuz qilishda ochiq manqalanishga moyilligi bo'lsa, unda mashqlar undosh tovushlar bilan, masalan, «pa», «po» va boshqalar bilan birgalikda bajarilishi kerak deyilgan.

Ko'rinib turibdiki, fonetik ritmika eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqni egallash jarayonining barcha elementlarini rivojlantirar ekan, biz o'z ishimizda tajriba-sinov guruhlarimizning barchasida eng avvalo, nafas, ovoz, harakat hamda tovushlar talaffuzini shakllantirishni lozim topdik va fonetik ritmika maxsus metodikasining tovushlar talaffuzini shakllantirishga qaratilgan bo'limini o'grandik. Bunga ko'ra ushbu bo'limni 1- bo'lim deb nomladik. 2- bo'lim deb bo'g'inlar , so'z va iboralar ustida ishlashga doir mashqlar, 3- bo'lim deb matn, she'r va hikoyalar ustida ishlash mashqlarini belgiladik.

Magistrlik darajasini olish uchu biz 1-bo'lim ustida tajriba -sinov o'tkazishni rejalashtirdik.

Eksperimetni olib borishdan oldin, biz tomondan ishlab chiqilgan so'rovnomalarni 101 va 106- eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari boshlang'ich sinf rahbarlari, ritmika o'qituvchilari, yakka mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchilar va ota-onalar bilan o'tkazdik.

So'rovnoma: 0-1 sinf rahbarlari uchun;

So'rovnoma ota-onalar uchun;

So'rovnoma ritmika rahbarlari va yakka mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchilar .

Har bir maktabda alohida uchrashuvlar va seminarlar tashkil etildi va so'rovnomalar asosida suhbatlar, baxs-munozaralarga sabab bo'ldi. Sinf rahbarlari tomonidan Fonetik ritmikaning xususiyatlari va olib borish tartibi haqida ko'plab savollar tushdi. Yakka mashg'ulot mutaxassislaridan esa ushbu maxsus metodikadan qaysi davrda foydalangan ma'qul degan savollar bilan murojatlar bo'ldi. Ammo 1 nafar ritmika o'qituvchilari tomonidan fonetik ritmika maxsus metodikasi bor oz tanqidga uchradi. Uning fikricha fonetik ritmikani ritmikadan hech qanday farqi yo'q va hozirda fonetik ritmikaning ayrim elementlarini ritmika mashg'ulotlarida bajarayotganini aytib o'tdi. Bu ma'lumotni o'rganish maqsadida biz muassasada ritmika mashg'ulotlarining yillik va kalendar rejalarini o'rganib chiqdik va shuni aniqladik-ki, ritmika mashg'ulotlarida 1-sinflarda har xil hayvonlar ovozi va yurish-turishiga taqlid qilish bo'yicha mashg'ulotlar olib borilar ekan, ammo, tovushlar talaffuzini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan, yakka mashg'ulot mutaxassisi bilan uzviy aloqadorlikda qilinadigan ishlar rejada mavjud emas. Shu boisdan biz mutaxassislarimizga fonetik ritmika, logoritmika va ritmika

metodikalarining farqli tomonlarini ko`rsatish bu 3 metodikani taqqosladik va metodik tavsiyalarimizda keltirib o`tdik.

**ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИДА
МАГИСТРЛИК ДАРАЖАСИНИ ОЛИШ УЧУН ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ТАДҚИҚОТ ИШИ
СЎРОВНОМАСИ**

Сўровнома _____нинг 0-1 чи синф раҳбарлари учун тайёрланган.
Исм шарифингиз ва синф раҳбарлигингиз (тўлиқ) _____
Меҳнат стажингиз ва маълумотингиз: _____

Синф раҳбарлигингизда нечта ўқувчи бор? _____
Улардан қайсиларида нуқсон ирсий? _____
Сизнинг ўқувчиларингиз машғулот вақтида қайси мулоқот туридан фойдаланадилар?
Дактил. Имо-ишора. Оғзаки. Аралаш. Ҳали фойдаланмайдилар. (тагига чизинг)

Сизнинг ўқувчиларингиз машғулотдан ташқари вақтда қайси мулоқот туридан фойдаланадилар?
Дактил. Имо-ишора. Оғзаки. Аралаш. Ҳали фойдаланмайдилар. (тагига чизинг)

Сиз машғулотларингиз вақтида ўқувчиларингиздан оғзаки нутқдан фойдаланишларини талаб этасизми?
Талаб этаман. Талаб этмайман. (тагига чизинг)

Муассасангизда олиб борилаётган коррекцион машғулотларда ўқувчилар оғзаки нутқини ривожлантириш учун шароит яратилганми, агар бўлса қандай?

Фонетик ритмика нима? _____
Коррекцион машғулотларда ўқувчилар оғзаки нутқини фонетик ритмика орқали шакллантириш ва ривожлантириш усулларида фойдаланасизми ва буни муҳим деб ўйлайсизми (тагига чизинг)
Ҳа, фойдаланаман, муҳим деб ўйлайман.
Йўқ, фойдаланмайман, аммо муҳим деб ўйламайман.
Фойдаланаман, аммо муҳим деб ўйламайман.
Фойдаланмайман, аммо муҳим деб ўйлайман.
Сиз ўз иш фаолиятингизда ўқувчиларингизнинг ота-оналари билан ҳамкорликни йўлга қўйганмисиз, агар бўлса қандай қўринишда? _____

Таклифларингиз _____

(1-so`rovnoma)

**ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИДА
МАГИСТРЛИК ДАРАЖАСИНИ ОЛИШ УЧУН ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ТАДҚИҚОТ ИШИ**

СЎРОВНОМАСИ

Сўровнома _____нинг 0-1 чи синфлар ритмика ўқитувчиси учун тайёрланган.
Исм шарифингиз ва синф раҳбарлигингиз (тўлиқ) _____
Меҳнат стажингиз: _____
Маълумотингиз: _____

Сизнинг ўқувчиларингиз машғулот вақтида қайси мулоқот туридан фойдаланадилар?
Дактил. Имо-ишора. Оғзаки. Аралаш. Ҳали фойдаланмайдилар. (тагига чизинг)
Сиз машғулотларингиз вақтида ўқувчиларингиздан оғзаки нутқдан фойдаланишларини талаб этасизми?
Талаб этаман. Талаб этмайман. (тагига чизинг)
Ўз ритмик машғулотларингизда қайси олимнинг қайси методикасидан фойдаланасиз?

Ўқувчиларингиз оғзаки нутқини қай усулда ривожлантирасиз? _____

Муассасангизда олиб борилаётган коррекцион машғулотларда ўқувчилар оғзаки нутқини ривожлантириш учун шароит яратилганми, агар бўлса қандай?

Фонетик ритмика нима? _____

Коррекцион машғулотларда ўқувчилар оғзаки нутқини фонетик ритмика орқали шакллантириш ва ривожлантириш усулларида фойдаланасизми ва буни муҳим деб ўйлайсизми (тагига чизинг)
Ҳа, фойдаланаман, муҳим деб ўйлайман.
Йўқ, фойдаланмайман, аммо муҳим деб ўйламайман.
Фойдаланаман, аммо муҳим деб ўйламайман.
Фойдаланмайман, аммо муҳим деб ўйлайман.

Сиз ўз иш фаолиятингизда ўқувчиларингизнинг ота-оналари билан ҳамкорликни йўлга қўйганмисиз, агар бўлса қандай қўринишда? _____
Таклифларингиз _____

(2-so`rovnoma)

**ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИДА
МАГИСТРЛИК ДАРАЖАСИНИ ОЛИШ УЧУН
ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ТАДҚИҚОТ ИШИ
ОТА –ОНАЛАР СЎРОВНОМАСИ**

Исм шарифингиз: _____

Болангизнинг иси, шарифи, ёши, синфи: _____
 Болангизнинг эшитув қобилиятидаги камчиликни қачон сездингиз? (ёшини ёзини)

Фарзандингиз неча ёшда мактабга борди? _____
 Мактабдан олдин мутахассис ёрдамидан фойдаланганмисизлар? (тагига чизинг)
 Ҳа. Йўқ.

Болангиз уй шароитида қайси оила аъзоларингиз билан кўпроқ мулоқотга киришадиган?

Фарзандингиз уй шароитида қайси мулоқот туридан фойдаланади? (тагига чизинг)
 Имо-ишора. Оғзаки. Дактил. Оғзаки ва имо-ишора. Аралаш. Мулоқотга киришмайди.
 Болангиз қайси мулоқот туридан фойдаланса яхши булади деб ўйлайсиз?
 (тагига чизинг)

Имо-ишора. Оғзаки. Дактил. Оғзаки ва имо-ишора.
 Болангиз билан олиб борилаётган коррекцион машғулотлардан сўнг оғзаки нутқини
 ўзгаришлар сездингизми? (тагига чизинг)

Ҳа. Йўқ. Ўзгармади.
 Мактабда болангизга фонетик ритмика машғулоти ўтиладими? (тагига чизинг)

Ҳа. Йўқ.
 Мактабда ота-оналар учун семинар-тренинглар ташкил этиладими? (тагига чизинг)
 Ҳа. Йўқ.

Таклифларингиз _____

(3-so'rovnomada).

Маълумотларни тahlil қилиб, quyidagi kriteriyalar bo'yicha belgilarni jadval ko'rinishida ko'rsatamiz. (4-jadval)

(5-jadval)

№	So'rovnomada ishtirok etganlar (har ikki maktab -internatidan)	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolangiz yoki o'quvchingiz o'g'zaki nutqdan foydalanadimi?		Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolangizni yoki o'quvchingiz o'g'zaki nutqdan foydalanishini xoxlaysizmi?	
		Ha	yo'q	ha	yo'q
1	38 pedagog hodimlar	4	34	38	0
2	43 nafar ota-onalar	3	40	43	0

№	So'rovnomada eshtiro etganlar (har ikki maktab -internatidan)	Fonetnik ritmika maxsus metodikasi haqida eshitganman	Fonetik ritmikani maxsus metodikasidan foydalanaman	Fonetik ritmikani maxsus metodikasi kerak	Fonetik ritmikani maxsus metodikasi kerak emas
1	38 nafar ped hodim	2 nafar	2 nafar	37 nafar	1 nafar

Fonetik ritmika maxsus metodikasini targ'ib qilish maqsadida biz tomondan 101 va 106- eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun jatisoslashtirilgan maktab-internatlari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun seminarlar tashkil etildi. Bunda barcha pedagog va tarbiyachilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish bilan bir qatorda, fonetik ritmika maxsus metodikasining eshitishda muammosi bor bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot berildi. Ishtirokchilar bilan fikr-mulohaza almashildi, so'rovnomalar tahlil qilindi va natijalarni jadval ko'rinishida berildi. (2- jadval)

Ushbu jadval tahliliga ko'ra metodikadan foydalanib ko'rish taklifimiz qabul qilindi. Pedagog va tarbiyachilarga "Quvnoq fonetik ritmika" elektron qo'llanmasi topshirildi. Eksperinental guruh bilan ishlash rejaları tuzildi.

Shunday ekan, ilmiy ma'lumotlar eshitishida nuqsoni bor bolalarning nutqi hayoti davomida barcha davrlarda, ularning og'zaki nutqni eshitmasligi oqibatida yuzaga keladigan "orqada qolishlar", "og'shlar" bu toifadagi bolalarning hayot, borliq haqidagi tushunchalarining kambag'allashishiga olib keladi. Eshituv organidagi nuqson birlamchi bo'lib, buning oqibatida nutqni eshita olmaslik ikkilamchi nuqson sifatida yuzaga kelib, oqibatda bolaning jamiyatdagi o'rnini topa olmaslik holatlari uni butun hayoti davomida qiyinchiliklarga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Buni L.S.Vigotskiy, F.F.Rau, L.P.Noskova, L.A.Golovchis, I.Kislisina, U.Fayziyev, F.Alimxodjayeva va boshqa olimlarning asarlarida e'tirof etiladi. Ilk davrda eshituv nuqsoniga ega bolalar eshitadigan bolalar singari ovoz chiqarish, gurgulash, so'ng g'uldirashdek nutqning ilk ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Keyinchalik, bu toifadagi bolalarning nutqi rivojlanmay qolishi boshqalar nutqini eshitib, taqlid qilish jarayonida uzilish sabab bo'ladi. Oqibatda og'zaki nutq kommunikatsiyasi egallanmay qoladi. Faqatgina, maxsus yaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonida eshituv nuqsoniga ega

bolalar muloqot vositalarini egallashi, ayniqsa og`zaki nutqqa o`rganishi mumkin.

Biz Vlasova va Pfaferrod taklif etgan tovushlar talaffuziga olid shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi metodikani takomillashtirdik. Bunda biz o`zbek tili orfoepik qoidalarini inobatga olgan holda chuqur til irqi tovushlari q, g, h va unli tovush o` uchun fonetik ritmika mashqlarini ishlab chiqishga erishdik. Bunga ko`ra elektron metodik qo`llanma yaratdik. Ushbu elektron qo`llanmadan foydalanish uchun maktab tarbiyachilariga, surdopedagoglarga, individual o`qituvchilarga hamda ritmika rahbarlariga taqdim etdik.

Harakatda hayot, shunday ekan, biz tanlagan fonetik ritmika maxsus metodikasi eshitishida muammosi bo`lgan bolalarning barcha toifalarida og`zaki nutqni shakllantirishda xizmat qiladi. Harakat orqali bajarilgan barcha nutqiy materiallar kinestetik, nevrologik jihatdan qabul qilinadi, bunda miyada burmalar hosil bo`lishi tezlashadi va natijada xotira hosil bo`ladi. Paydo qilingan nutqiy ko`nikma muntazam takrorlanilganida esa malakaga aylanadi.

Eshitishida muammosi bo`lgan bolalar og`zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan barcha jarayonlarning boshlang`ichi etapi fonetik ritmika bo`lishi zarur deb hisoblaymiz, chunki L. Vigodskiy, Luriya, Pfaferrod va Vlasovalar qolaversa Pulatovalar ham nutqning harakat bilan rivojlanishini ilmiy tasdiqlaganlar. Bunda harakat nutqning stimulyatori desak mubolag`a bo`lmaydi.

Shunday ekan fonetik ritmika maxsus metodikasini eshitishida muammosi bo`lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan barcha turdagi ta`lim muassasalari o`quv rejasiga kiritish zarur deb hisoblaymiz. Isdiqbolda biz tomonidan "Fonetik ritmika" maxsus metodikasini nutqiy nuqsonlarni korreksiyalashda qo`llab ko`rish rejalashtirmoqdamiz.

2.4 Tajriba-sinov ishlar natijalari.

A va B eksperimentalguruhlarda ish bolalar bilan kunning ikkinchi yarimida, haftasida 3 marotaba olib borildi. Bitta dars frontal, ikkinchisi va uchinchisi individual tarzda olib boriladi.

1- darsda «a», «o», «u», «i», «e» unli tovushlar ustida ishlandi. Bolalarga avval static holatdagi boshlang`ich pozitsiya hamda harakatlanish usullari o`rgatildi. Bunda kar bolalarga qo`lidan ushlab

olib, ko`p marotaba takroran ko`rsatib yondashildi, zaif eshituvchi o`quvchilarga esa qarama-qarshi turib olib taqlid usulida o`rgatildi. B guruhi da harakatlarni mustahkamlash va o`rgatish 5 ta mashg`ulotda erishilgan bo`lsa, A guruhi o`quvchilari bilan esa 3 ta mashg`ulotda yodlab olishga erishdik. Shu o`rinda nutqiy nafas ko`nikmalari ham shakllantirildi.

Bunda ish bosqichlari quyidagicha tashkillashtirildi:

- chuqur nafasni burnudan olib, unilarning artikulyatsiyasini tutib turib, kerakli harakatni bajarayotib, faqatgina nafas chiqarishini mashq qildirish;

- chuqur nafasni burundan olib, unilarning artikulyatsiyasini tutib turib, kerakli harakatni bajarayotib, ovoz ishtirokida to`liq, cho`ziq talaffuz qildirish;

2- dars jarangsiz portlovchi undosh «p», «t», «k» tovushlar ustida ish olib borishga qaratilgan. Tovushlarni «pa», «ta», «ka» deb o`rgatamiz.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

Chuqur nafas og`izdan olib, og`zdan keskin nafas chiqarishga o`rgatish;

tovushlarining artikulyatsion holati ustida ishlash;

tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;

tovushning fonetik holatini o`rgatish;

tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda keskin talaffuzga erishish.

A guruh bilan 2 darsning har bir tovushini 2-3 mashg`ulotda o`lashtirishga muvaffaq bo`ldik. O`quvchilar tovushlarni aniq talaffuz etishni o`rganishdi va ijobiy natija oldik.

3- dars jarangli portlovchi undosh tovushlarga bag`shlangan bo`lib, bunda «b» va «d» tovushlari ustida ish olib boriladi. Talaffuzni yanada ani va toza eshivilishini ta`minlash uchun «a» tovushini yordamchi tovush sifatida foydalaniladi.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

-chuqur nafar og`izdan olib, og`zdan keskin nafas chiqarishga o`rgatish;

-«pa» deb turib, ovoz chiqarish ustida ishlash;

-tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;

-tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda keskin harakat bilan talaffuz etishga erishish.

A guruh har bir tovushni 2 ta darsda o`zlashtirishga erishdi, II guruhda kerakli natijaga erishish uchun esa har bir tovushga 3-4 ta mashg`ulot ishlash zarur bo`ldi.

4- dars jarangsiz sirg`aluvchi va shovqinli undosh tovushlarga bag`ishlangan bo`lib, bunda «s», «sh», «ch» tovushlari talaffuzini shakllantirish va rivojlantirish ishi olib borildi.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

- chuqur nafas og`izdan olib, og`izdan sekin, cho`ziq holatda nafas chiqarishga o`rgatish;

- tovushning artikulyatsion holatini shakllantirish;

-tovushning artikulyatsion holatini turib turib, nafas chiqarish ustida ishlash;

-tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;

-tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda sokin, bo`shashgan harakat bilan talaffuz etishga erishish.

A guruhda har bir tovush uchun 2 tadan mashg`ulotda natijaga erishildi, B guruhda esa har bir tovush uchun 3-4 tadan mashg`ulot olib borish zarur bo`ldi.

5-dars lab-tish undosh tovushlariga bag`ishlanib, bunda «v» va «f» tovushlari ustida ishlandi.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

-chuqur nafas og`izdan olib, pastki labni yengil tishlab, og`izdan sekin, choziq holatda nafas chiqarishni o`rgatish;

-tovushning artikulyatsion holatini turib turib, og`izdan nafas chiqarish ustida ishlash;

-tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;

-tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda keskin, kuchki harakatlanishni mashq qildirish.

A guruhida tovushlarni har birini hosil qilish uchun 3 tadan mashg`ulot sarflandi. B guruhiga esa 3-4 tadan mashg`ulot vaqti sarflandi.

6-dars jarangli sirg`aluvchi undosh tovushlarga bag`ishlanib, «z» va «j» tovushlari ustida ish olib borildi.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

- chuqur nafas og`izdan olib, og`izdan sekin, choziq holatda nafas chiqarishni mustahkamlash;

-tovushning artikulyatsion holatini turib turib, og`izdan nafas chiqarish ustida ishlash;

-tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;

-tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

-«z» tovushi talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda kuchli, ammo sekin, bir maromda harakatlanishni mashq qildirish.

- «j» tovushi talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda kuchli, keskin harakatlanishni mashq qildirish.

A guruhida tovushlarni har birini hosil qilish uchun 3 tadan mashg`ulot. B guruhiga esa 5 tadan mashg`ulot vaqti sarflandi.

7- dars sonorlar uchun bag`ishlangan bo`lib, «m», «n», «l», «r» tovushlari ustida ish olib borildi.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

-og`izdan chuqur nafas olib, «m» tovushi uchun lablarni jipslashtirib, «n» tovushi uchun til uchini yuqori tishlar tomon ko`targan holatda burundan nafas chiqarishda chozib, bir maromda chiqarishni o`rgatish;

-tovushning artikulyatsion holatini ushlab turib, og`izdan nafas chiqarish va ovozni qo`shishga o`rgatish;

-tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;

-tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

-tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda kuchli, ammo sekin, bir maromda harakatlanishni mashq qildirish.

A guruhida tovushlarni har birini hosil qilish uchun 3 tadan mashg`ulot sarflandi. B guruhiga esa 5 tadan mashg`ulot vaqti ajratildi.

8-dars chuqur til orqa undosh tovushlarga bag`ishlangan bo`lib, «q», «g`, «x» tovushlari ustida ish olib borildi.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

- illiq suv bilan tomoqni chaydirish vaqtida og`izdan chuqur nafar olib, og`izni katta ochgan holatda og`izdan cho`ziq va bir maromda nafas chiqarishga o`rgatish;

- tovushning artikulyatsion holatini turib turib, og`zdan keskin nafas chiqarish, ovozni qo`shishga o`rgatish;
- tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;
- tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;
- tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;
- tovushi talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirishda harakatlanishni mashq qildirish.

A guruhida tovushlarni har birini hosil qilish uchun 2-3 tadan mashg`ulot sarflandi. B guruhiga esa 5 tadan mashg`ulot vaqti sarflandi. 9- dasr chuqur til orqa undosh tovush, ya`ni h tovushi ustida ishlash.

Bunda ishning o`ziga xos xususiyati:

- og`izni katta ochgan holatda chuqur nafas olib, og`zdan cho`ziq va bir maromda nafas chiqarishga o`rgatish;

-tovushning artikulyatsion holatini turib turib, og`izdan keskin nafas chiqarish va ovozni qo`shishga o`rgatish;

- tovushni talaffuz etishda kinestetik belgilari ustida ishlash;
- tovushning harakatli ko`rinishini o`rgatish;
- tovush talaffuzi va unga ko`ra harakatni uyg`unlashtirish;

A guruhida tovushlarni «h» hosil qilish uchun 2 ta mashg`ulot sarflandi. B guruhiga esa 4 ta mashg`ulot vaqti sarflandi.


Tajriba-sinov 13 oy davom etdi, bu, taxminan 45 o`quv haftasini o`z ichiga olib, har bir guruh bilan haftasiga 3 ta mashg`ulot olib borildi. Demak, har bir guruh bilan 135 soat Tajriba-sinov o`tkazildi. Oxirgi 14-oyning 1-haftasidan boshlab natijalar tahlili o`tkazila boshlandi.

A guruhi bilan tovushlar talaffuzi ustida 50 soat mashg`ulot o`tili. Qolgan 40 soat nafas, ovoz va artikulyatsion mashqlar hamda ritm ustida ishlashga sarflandi.

B gruruhi bilan tovushlar talaffuzi ustida taxminan 90 soat mashg`ulot o`tili. Bundan kelib chiqib shuni ta`kidlash joiz-ki, zaif eshituvchilar bilan barcha tovushlarni fonetik ritmika orqali shakllantirish uchun 1 o`quv yili davomida mashg`ulot olib borilsa, maqsadga muvofiq.


Karlik darajasiga ega o`quvchilar bilan, esa barcha tovushlarni fonetik ritmika orqali shakllantirish uchun 2 o`quv yili davomida mashg`ulot olib borilishini taklif etamiz.

Ta'limiy eksperimentdan olingan natijalar tahlilini 3-diagrammada ko`rsatdik.




№(3-diagrammada).

Eksperimentimizning oxirgi bosqichida biz nazorat guruhimiz va rivojlantiruvchi eksperiment uchun tanlangan guruhlarimizning natijalarini taqosladi va 4- diagrammada ko`rsatdik. Bu diagrammada ko`rinib turibdi-ki, 6 ta belgi bo`yicha A va B guruhlarimizda o`shish di/namikasi S va D guruhlarimizga qaraganda yuqoriroq Buni aniqroq ko`rsatish uchun matematik tahlil qilish orqali jalarda ko`rsatishni lozim topdik.



№(4-diagramma)

5-diagrammada 0- sinf kar o`quvchilarining 6 ta belgi bo`yicha rivojlanishining davriy tahlili berildi.



№(5-diagramma)

10 nafar 0-sinf kar o'quvchilarning 6 ta xususiyat bo'yicha rivojlanganligi davriy jadvalida ham ko'rsatik. (6-jadval)

O'quvchilar soni va d/s	Umumiy motorika holati	Nutqiy nafasi	Ovozi	Unli tovushlari	Jarangli undosh tovushlari	Jarangsiz undosh tovushlari
Tajriba -sinovdan avval 10 nafar	4	3	3	2	3	3
Tajriba -sinovdan so'ng 10 nafar	6	8	7	7	7	5

Bu jadvalda o'quvchilarning tovushlarni talaffuz qilish imkoniyatlari ikki barobarga oshganligi korinib turibdi.

10 nafar 1-sinf kar o'quvchilarning 6 ta xususiyat bo'yicha rivojlanganligi davriy jadvali. (7- jadval)

O'quvchilar soni va d/s	Umumiy motorika holati	Nutqiy nafasi	Ovozi	Unli tovushlari	Jarangli undosh tovushlari	Jarangsiz undosh tovushlari
Tajriba -sinovdan avval	6	4	4	4	3	2
Tajriba -sinovdan so'ng	8	8	7	7	7	5

2.5 Korreksion ishni tashkil etishda surdopedagoglarga beriladigan umumiy tavsiyalar:

1. O'quvchining umumiy somatik holatini inobatga olish;
2. O'quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish;
3. O'quvchining nuqsoni darajasi va paydo bo'lgan davrini inobatga olish;
4. O'quvchining umumiy va mayda qo'l motorikasi imkoniyatlarini hisobga olish;
5. Nafas va ovoz inkoniyatlarini hisobga olish;
6. O'quvchilarning daktil vibratsion sezgirligini hisobga olish
7. O'quvchilarning og'zaki nutq imkoniyatlarini inobatga olish;
8. Ikkilamchi nuqsonlarini inobatga olish.

Korreksion ishni tashkil etishda surdopedagoglarga beriladigan metodik tavsiyalar:

1. Mashg'ulotni frontal va individual tashkil etish;
2. Mashg'ulot uchun kerakli jihozlarning bo'lishi;
3. O'quvchi va pedagog yuzma-yuz turishi lozim;
4. O'qituvchining artikulyatsiyasi bolaga ko'rinib turishi lozim;
5. Mashg'ulotni boshlashda oldin nafas mashqlarini bajarish;
6. Mashg'ulotda ovoz kuchaytiruvchi apparatdan foydalanish;
7. Boshlang'ich pozitsiyani tutishda og'zdan chuqur nafas olishiga erishish;
8. Tovushlarni avvali ovozsiz, so'ngra ovoz bilan mashq qilish;
9. Shakllantirilayotgan tovush aniq paydo bo'lmagunga qadar boshqa tovushga o'tmaslik;
10. Yangi tovushga o'tishda oldingi tovushlarni takroriy mashq qildirish;
11. Shakllantirilgan tovushni a, o, u, i, e, o` unlilar bilan bo'g'inlarda kuylash mashqlarini bajarish;
12. Tovush paydo qilinganidan so'ng uni harakatsiz talaffuz qilishga o'rgatish.
13. Har mashg'ulotda rag'batlantirish.

2.5 Korreksion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilar og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay o'tmasligi, shu bois jamiyat a'zolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy

hayotda o'z o'rnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Bular o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan turli sabablarga bog'liq bo'lib, bu xususda L.S.Vigotskiy: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoadan yakkalanib qolishga, jamoadan ajralib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi», - deydi.

Shunday ekan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi hech zamonda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, bu esa biz tanlagan yo'lning nechog'lik muhim ekanini belgilab beradi. 101 va 106 chi maxsus maktab-internatlarining ish tajribalarini o'rganish davrida muassasada og'zaki nutqqa o'rgatishga qaratilgan mashg'ulotlar olib borilsada, o'quvchilarning og'zaki nutqdan foydalanish darajasining juda pastligi yoki umuman foydalanilmasligini aniqladik.

Yuqorida aytilganidek, fonetik ritmika maxsus metodikasi bolalarning kinestetik sezgilariga ta'sir qilgan holda ularning nutqiy imkoniyatlarini og'zaki ifodalashga o'rgatish. Bu jarayonda bolalarning umumiy va mayda motorikasi, nutqiy nafasi, ovozi, ritm hissi fazoda mo'ljal olish qobiliyati rivojlanadi.

Ammo biz fonetik ritmikani ritmika va logoritmikadan farqlab olishimiz zarur. Quyida berilgan jadvallarda ritmika, logoritmika va fonetik ritmika maxsus metodikalarining o'xshash va farqli jihatlari ilmiy asoslangan manbaalardan olingan faktlar asosida taqqoslangan. Soha mutaxassislarga ushbu ma'lumotlar fonetik ritmika mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi.

(8-jadval)

No	Metodikaning nomi:	Ta'rif:
1	Ritmika:	Ritmika amaliy mashqlar to'plami bo'lib, musiqa va harakatning uyg'unlashuviga qaratilgan.
2	Logoritmika:	Logopedik ritmikaning dastlabki tushunchasi so'z, musiqa va harakatning uyg'unlashuviga asoslangan. Ko'rsatilgan komponentlarni o'zaro munosabati ulardan birining yoki ular orasidagi aloqaning ustunligi bilan turli-tuman bulishi mumkin.
3	Fonetik ritmika:	Fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) majmuasi bo'lib, audial, visual, kinestetik ta'sir etish orqali nutqning prossodik tomonini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi karreksion texnologiyadir.

No	Metodikaning nomi:	Ob'ekti:
1	Ritmika:	Ommaviy maktab o'quvchilari va maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyalanuvchilari sog'lom bola
2	Logoritmika:	Nutqida patologiyasi bo'lgan shaxslarda nutqiy buzilishlar va nutqqa taalluqli bo'lmagan psixik funksiyalar tuzilmalari hisoblanadi.
3	Fonetik ritmika:	Eshitishda nuqsoni bor bolalar

(9-jadval)

No	Metodikaning nomi:	Maqsadi:
1	Ritmika:	Bolalardagi musiqiy qobiliyatini ochish va harakat orqali musiqiy tarbiyani amalga oshirish.
2	Logoritmika:	Nutq buzilishlarni nutqiy va nutqiy bulmagan psixik funksiyalar va yakuniy natijada insonning tashki va ichki muhitga moslashuvini korreksiya qilish hamda rivojlantirish yo'li bilan bartaraf etish.
3	Fonetik ritmika:	Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; Tavush funksiyalarini faollashtirish; Nutqiy faoliyatni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik tonallik tomonini shakllantirish.

(10-jadval)

No	Metodikaning nomi:	Vazifasi:
1	Ritmika:	Bolalarda musiqiylikni aniqlash va ritm hissini tarbiyalash.

2	Logoritmika;	Harakat-tayanch apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funktsiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg'usi, qad qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi: ohangni sezish, musiqada, harakatda va nutqda ohang ta'sirchanligini his qilish qobiliyatini rivojlantirish; -musiqiy obrazlar va malakani ushbu obraz bilan mos ravishda oxangli, ta'sirchan xarakatlantira olish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni yangicha shakl olishni uddalash, badiiy-ijodiy qobiliyatni ko'rsata olish; -ijobiy shaxsiy sifatlar, jamoatchilik tuyg'usi, har xil faoliyat turlarining qoidalarini o'rganish va boshqalarni tarbiyalash
3	Fonetik ritmika:	-nutqiy nafasni normallashtirish va unga aloqador nutqning birlashishi; - ovoz kuchini va balandligini o'zgartirish qobiliyatini shakllantirish, normal tembrni me'yordan qo'pol ravishda chetga chiqmasdan saqlash; -bo'g'inlar va so'z birikmalarida, so'zlarda hamda iboralarda tovushlarni va ularning kombinatsiyalarini to'g'ri takrorlash; -nutq materialini ma'lum bir sur'atda takrorlash; - turli ritmlarni his qilish, farqlash va takrorlash; his-tuyg'ularni turli xil intonatsion vositalar bilan ifodalash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

(11-jadval)

No	Metodikaning nomi:	Ish bosqichlari:
1	Ritmika:	1. Bolalarda ritmni, musiqiy harakat va hissiy emotsional ifodalashni rivojlantirish; 2. klassik raqs asoslarini; 3. klassik raqs elementlarini rivojlantirish. ⁶¹
2	Logoritmika:	1. Tayyorlov davri; 2. Asosiy davr: nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik tomonlarining shakllantirish; 3. Yakuniy davr: ochq havoda olib boriladigan mashg'ulotlarga tayyorlash. ⁶²
3	Fonetik ritmika:	- nutq tovushlari ustida ishlash; - nutqiy nafas ustida ishlash rabota; - nutqiy nafasni postanovka qilish; - tovush ustida ishlash; -nutqning ritmi ustida ishlash; nutq tempi ustida ishlash; - nutqning sur'ati ustida ishlash.

(12-jadval)

⁶¹ 4. Stepanova L.A. Posobie «metodicheskoe posobie po ritmike dlya detey 5, 6, 7 letnego vozrasta» prednaznachenno v pomosh'yu prepodavatelyam ritmiki DMSH i DSHI - 2008 god

Kononova Ye.V. «METODICHESKOE POSOBIE PO RITMIKE. Vypusk 1» (posobie prednaznachenno v pomosh'yu prepodavatelyam ritmiki v muzykal'nykh shkolax) - Moskva 1972 god

⁶² 3. E. N. Nazarova-logoped det.sad Logopedicheskaya ritmika: (uchebno-metodicheskoe posobie dlya logopedov spets.vyp.sadov) - Tashkent-2004

Jadvallarda berilganidek, ritmika, logoritmika va fonetik ritmikaning barcha jihatlarida ko'plab o'xshash tomonlari topsa bo'ladi, ammo mazkur metodikalarning ob'ektida yaqqol farqli tomoni ko'rinib turibdi.

Ushbu ma'lumotlar ilmiy manbaalardan olingan bo'lib, bunday differensial yondoshuv birinchi bor bizning ishimizda amalga oshirilgani.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan har ikki toifadagi 0-1-sinf o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ularning nutqiy imkoniyatlarini individual tarzda to'liq tahlil qilib olish zarur. Fonetik ritmika maxsus metodikasi bolalardan umumiy motorika holatining aktivligini talab qilar ekan, bolalarning mayda va umumiy harakati tizimidagi o'ziga xos tomonlarini inobatga olishni tavsiya etamiz. Biz tavsiya etayotgan fonetik ritmika maxsus metodikasi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab internati 0-1 chi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, metodikani o'quv yilining boshidanoq, yakka mashg'ulotlarda, barcha turdagi boshqa mashg'ulotlarda dars fragmenti sifatida, ritmika mashg'ulotlarining asosiy qismida olib borish tavsiya etiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilarining nutqiga tovush qo'yishga tayyorgarlik davrida nafas va ovoz mashqlarini olib borishda fragmental ishlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilarining nutqiga tovush qo'yish davrida yordamchi vosita sifatida emas, asosiy usul tariqasida foydalanish zarur. Tovush nutqida hosil bo'lgach, unlilar bilan uyg'unlashtirib talaffuz qilish davrida, ya'ni mustahkamlash davrining boshida olib borish tavsiya etiladi.

Shunday ekan fonetik ritmika maxsus metodikasini eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan barcha turdagi ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritishni tavsiya etamiz.

2.6 Koxlear implantli bolalarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika texnologiyasining korreksion imkoniyatlari

Respublikamizda koxlear implantli amaliyot juda yaxshi yo'lga qo'yilgani bois barchaning ongida bola endi hech qiyinchiliklarsiz tengxo'rlariga yetib oladi degan fikr paydo bo'ldi. Ammo, agar jarrohlik amaliyotidan so'ng nutqiy reabilitatsiya yaxshi yo'lga qo'yilmasa, surdopedagog yoki logoped va oila tizimli yondashmasa bolaga unda

paydo bo'lgan eshitish qobiliyati salbiy ta'sir etishi izlanishlarimiz davrida aniqlandi. Tibbiy pedagogik va psixologik reabilitatsiya talab darajasida olib borilsagina koxlear implant bola organizmiga o'rnatiladi, bola nutqni egallaydi va hamma kabi ijtimoiy hayotga tayyor bo'lib boradi. O'zbekistonda eshitish qobiliyati past bo'lgan 250 nafar bolaga koxlear implant o'rnatiladi. Bu haqda sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati ma'lum qildi. 63 Koxlear implantatsiya borasida gapirishdan avval ushbu jarroxlilik amaliyotining klinik xususiyatlarini o'rganidik.

Koxlear implanti (CI) – bu jarrohlik yo'li bilan implantatsiya qilingan neyroprotez bo'lib, u o'rtacha va chuqur sensorli eshitish qobiliyatini yo'qotgan odamga tovushni idrok etishni ta'minlaydi. Terapiya yordamida koxlear implantlar sokin va shovqinli muhitda nutqni tushunishni yaxshilashga imkon beradi. CI eshitish nervini bevosita elektr stimulyatsiyasi orqali akustik eshitishni chetlab o'tadi. Kundalik tinglash va eshitish mashqlari orqali koxlear implantlar bolalarga ham, kattalarga ham ushbu signallarni nutq va tovush sifatida talqin qilishni o'rganishga imkon beradi.

Ammo, amaliyotda koxlear implantatsiyadan so'ng ham bolalar nutqni mustaqil o'zlashtira olmasligi, oilada bolalarning reabilitatsion davrining to'g'ri va to'liq olib borilmasdan turib inklyziv ta'limga jalb etilishi juda ko'p uchramoqda. Buning oqibatida bolalarning nutq rivojlanmay qolayapti. Bunday sharoitda koxlear implantli bolalarga ham, zaif eshituvchi bolalarga ham og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda fonetik ritmika metodikasi xizmat qilishini aniqladik. Fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) majmuasi bo'lib, audial, visual, kinestetik ta'sir etish orqali nutqning prosodik tomonini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi karreksion texnologiyadir. Fonetik ritmika yaxshi kinezioterapiya hamdir va uning asosidsa ritm yotadi.

Fonetik ritmikada asosiy ish alohida ehtiyojli (ENB, CI bola, nutqida nuqsoni bor bola, ko'rishida nuqsoni bo'lgan) bolaga tovushni ham vizual, ham akustik va ham kinestetik anglatish hisoblanadi. Bunday yondashuv natijasida kar va zauf eshituvchi CI li bolalar 5-sinf dan boshlab umumta'lim maktablarda o'qishini davom ettirishi mumkin bo'ladi.

⁶³ <https://oz.sputniknews.uz/20230212/eshitish-qobiliyati-past-bolgan-250-nafar-bolaga-koxlear-implant-ornatiladi-32196132.html>

Koxlear implantdan so'ng pedagogik-psixologik reabilitatsiya quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi

Nutqiy protsessorni sozlash (doimiy ravishda)

Bolaning eshituv idrokini va nutqini rivojlantirish

Bolani umumiy rivojlantirish

Bola va uning yaqinlariga psixologik yordam ko'rsatish

Bunda bolaning eshituv idroki va nutqini rivojlantirish ishlari quyidagicha basqichlarda olib borilishi zarur

Eshitishga o'rgatish

So'zni idrok etish

Bog'langan nutqni shakllantirish

Mustaqil nutqni tushunish va undan foydalanishga o'rgatish.

Koxlear implantli amaliyotdan oldin boshlangan pedagogik-psixologik reabilitatsiya ishi CI dan so'ng ham davom ettiriladi. 64 Ushbu jarayonlarning o'z vaqtida, tizimli va to'g'ri tashkil etilishi oqibatida CI li bolalar sog'lom tengxo'rlari singari nutqni to'liq egallashlari mumkin degan nazariya bor. Ammo amaliyotda bu bilan bog'liq bo'lgan turli xil klinik, pedagogik-psixologik muammolar sabali hatto-ki CI li bolalar ham o'z tengqurlariga yeta olmayaptilar. Shunday ekan yuzaga kelayotgan pedagogik-psixologik muammolarning yechimini topishga harakat qildik.

Fonetik ritmika mashg'uloti yuqorida sanab o'tilgan korreksion mashg'ulotlar, CI dan oldingi va keyingi korreksion –pedagogik reabilitatsiya jarayonlarining barchasida olib borilishi zarur deb hisoblaymiz.

Fonetik ritmikada asosiy ish alohida ehtiyojli (ENB, CI bola, nutqida nuqsoni bor bola, ko'rishida nuqsoni bo'lgan) bolaga tovushni ham vizual, ham akustik va ham kinestetik anglatish hisoblanadi.


Mayda va umumiy motorika harakatlari rivojlantiriladi;

(harakat ritmi va muvozanat)nutqning prosodic tomoni shakllantiriladi va rivojlantiriladi;

talaffuz ko'nikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi;

nutqni eshitib idrok qilish qobiliyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Shu o'rinda nutqning prosodikasi nima?, degan savolga javob beramiz. 1- sxemada javob beramiz (13-sxema)



(13-sxema)

Nutqiy nafas – bu og'izdan qisqa va chuqur nafas olib, nafas chiqarish paytida havoni oqilona taqsimlash va bir vaqtning o'zida turli xil tovushlarni talaffuz etish jarayoniga aytiladi.⁶⁵ Diksiya (lot. dictio — talaffuz) — so'zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so'zlash usuli. Nutq madaniyatining asosini tashkil etadi.⁶⁶ Intonatsiya (lot. Intono — baland? talaffuz qilaman) (tilshunoslikda) — nutqning ohangi, uning maromiy-musiqiy tomoni; tovushning navbatma-navbat yuqorilashishi va pasayishidir. Intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolari (darak, so'roq, buyruq)ni ham ifodalaydi.

Nutqning stilistik xususiyatlarini farqlashda, uni shakllantirishda ham intonatsiya ma'lum rol o'ynaydi.⁶⁷ Urg'u (aksentema) bu-gapdagi biror bir bo'lakning boshqalariga nisbatan balandroq aytilishi yoki so'zagi biror bir bo'g'inning boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz etilishidir. Urg'u nutqni yanada tushunarliroq qilishga yordam beruvchi lingvistikanin yana bir bo'lagidir. Nutq metodikasi - ma'lum tilga xos ohang vositalari majmui bo'lib, monotonlikdan qochish imkonini beradi. Nutq tempi - utqning talaffuz tezligi bo'lib, so'z

⁶⁵ <https://mstone.ru/uz/parenting/razvivaem-rechevoe-dyhanie-u-detei-igr-i-uprazhneniya-na-razviliu/>

⁶⁶ <https://uztext.com/40735-text.html>

⁶⁷ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/intonatsiya-uz/>

mazmuni va talaffuz uslubiga bog'liq ravishda ma'lum bir qismlarini tezlashtirish yoki aksincha, sekinlashtirishdir. Ritm-ma'lum vaqt oralig'ida semantik yoki ekspressiv ma'noga ega bo'lgan nutq elementlarining ketma-ket almashinib turishidir. Matn shakllantiruvchi vositalaidan biridir. Pauza (tanaffus)-ovozning ma'lum vaqtga to'xtatishidir, nutq elementlarini aytilishidagi tanaffuslar. Pautalar nutq oqimini to'xtatadi, bu esa tinglovchilar tomonidan nutqni idrok etilishni osonlashtiradi. Ovoz imkoniyatlari esa ovozning kuchi, balandligi, tembri, ohangi va hz.

Demak, prosodikani rivojlantirish yordamida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar hamda CI li bolalarning talaffuz kamchiliklarini bartaraf etish mumkin. Bunda bolaning yoshni, individual xususiyatlari, nuqsonning darajasi va intellectual salohiyatini inobatga olgan holatda yondashish lozim. Bolaning shu xususiyatlariga mos she'r, hikoya, matn va nutqiy monologlar tanlanadi. Nutq prosodikasi ENB bola uchun muloqot vaqtida muhim ahamiyatga ega. Nutq prosodikasini rivojlantirishda musiqa va harakatlardan foydalanish yanada samarali bo'ladi. "Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan barcha jarayonlarning boshlang'ich etapi fonetik ritmika bo'lishi zarur deb hisoblaymiz, chunki L. Vigodskiy, Luriya, Pfafenrod va Vlasovalar qolaversa Pulatovalar ham nutqning harakat bilan rivojlanishini ilmiy tasdiqlaganlar. Bunda harakat nutqning stimulyatori desak mubolag'a bo'lmaydi.

Fonetik ritmika mashg'ulotlarinig metodikasi maqola uchun foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan. Fonerik ritmika mashg' uloti eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda maktab internatlarida; oilada sharoitida; inklyuziv sinflarda olib borilishi maqsadga muvoffiq deb hisoblaymiz.

2.7 Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika texnologiyasining korreksion imkoniyatlari

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida zamon talablariga moslashishga yo'naltirilgan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limida ham qator o'zgarishlar

⁶⁸ <http://hayllar.org/bundan-tashqari-ilk-qadam-davlat-dasturi-tasis-etilgan.html?page=8>

yuz bermoqda. Bunda o'quv rejalarining optimallashtirishini misol qilib olishimiz mumkin. Ma'lum-ki kar va zaif eshituvchi bolalar umumta'lim maktablarida maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan moslashtirilgan dastur asosida tahsil oladilar.⁶⁹ Ushbu o'quv reja har yili avgust oyida tahrirlanib, tasdiqlanadi, so'ngra amaliyotga joriy etishga taklif etiladi. Ushbu o'quv rejada davlat komponenti hamda korreksion fanlar komponentlari bor. Korreksion fanlar komponenti aynan alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib

- eshitish idrokini rivojlantirish, talaffuzni shakllantirish;
- nutqiy muloqot;
- musiqa va ritmika kabi mashg'ulotlardan tarkib topgan.

Eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha yillik ish reja tuziladi. Talaffuz va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha har bir o'quvchining talaffuzi va nutqidagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda individual reja tuziladi. Musiqa va ritmika mashg'ulotlari maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 2 nafar o'qituvchi: surdopedagog va musiqa rahbari tomonidan birgalikda o'tkaziladi.

"Nutqiy muloqot" korreksion dars o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim hisoblanib, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bu dars o'quvchilarni og'zaki, yozma, daktil va imo-ishorali shakllarda muloqot qilishiga o'rgatadi.

Musiqa va ritmika mashg'ulotlari maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 2 nafar o'qituvchi: surdopedagog va musiqa rahbari tomonidan birgalikda o'tkaziladi.

Afsuski aksariyat muassasalarda ushbu mashg'ulotlarga 2-darajali mashg'ulot sifatida qaralganligi sababli, har doim ham mashg'ulot kutilgan natijalarni bermayapti. Ya'ni kar va zaif eshituvchi bolalar fanlarni o'zlashtirish va atrofdagilar bilan muloqotga kirishish uchun yetarli ko'nikma, malakalarga ega bo'lmayaptilar. Shuning uchun ushbu muammoni hal etishda biz tomondan fonetik ritmika usuli yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu mashg'ulot ham korreksion fanlar sarasiga kiruvchi fanlardan hisoblanadi.

⁶⁹ O'RXTVA alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) boshida uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2021-2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risidagi 26.08.2021 / 273-son

Umumta'lim maktablarda zaif eshituvchi bolalar nutqini atrofdagi nutqiy va nonutqiy tovushlarni farqlash imkoniyatiga ham ega bo'ladilar, biroq eshitish qoldig'i mavjud bo'lsada ularning og'zaki nutqi prosodik jihatdan orqada qolishi, nutqiy nafas va ovozdan to'g'ri foydalana olmasligi, mayda motorikasidagi va umumiy tana harakatlaridagi o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatuvlarimiz davomida aniqlandi. Hatto-ki koxlear implantatsiyadan so'ng ham bolalar nutqini mustaqil o'zlashtira olmasligi, oilada bolalarning reabilitatsion davrining to'g'ri va to'liq olib borilishi holatlari juda ko'p uchramoqda. Buning oqibatida bolalarning nutqi rivojlanmay qolayapti. Bunday sharoitda koxlear implantli bolalarga ham, zaif eshituvchi bolalarga ham og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda fonetik ritmika metodikasi xizmat qilishini aniqladik. Chunki fonetik ritmikada muayyan bir nutqiy materialni (tovush, bo'g'in, so'z, jumla va hz) tananing turli harakatlari bilan birgalikda, uyg'unlashtirib talaffuz ettirilshda bolalarga kinezioterapevtik ta'sir ko'rsatilib, unga nutqni butun tanasi bilan his etishga imkon beriladi. Fonetik ritmikaning asosida ritm yotadi. Bunday yondashuv natijasida kar va zaif eshituvchi bolalar 5- sinfdan boshlab umumta'lim maktablarda o'qishini davom ettirishi mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda koxlear implantli amaliyot juda yaxshi yo'lga qo'yilganligi bois barchaning ongida bola endi hech qiyinchiliklarsiz tengqurlariga etib oladi degan fikr paydo bo'ldi. Ammo, agar jarrohlik amaliyotidan so'ng nutqiy reabilitatsiya yaxshi yo'lga qo'yilmasa, surdopedagog yoki logoped va oila tizimli yondashmasa bolaga unda paydo bo'lgan eshitish qobiliyati salbiy ta'sir etishi izlanishlarni davrida aniqlandi. Tibbiy, pedagogik va psixologik reabilitatsiya talab darajasida olib borilsagina koxlear implant bola organizmiga o'rnatiladi, bola nutqini egallaydi va hamma kabi ijtimoiy hayotga tayyor bo'lib boradi. O'zbekistonda eshitish qobiliyati past bo'lgan 250 nafar bolaga koxlear implant o'rnatiladi. Bu haqda sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati ma'lum qildi.⁷⁰

Koxlear implantdan so'ng pedagogik-psixologik reabilitatsiya quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:

- nutqiy protsessorni sozlash (doimiy ravishda) ;
- bolaning eshituv idrokini va nutqini rivojlantirish;

⁷⁰ <https://oz.sputniknews.uz/20230212/eshitish-qobiliyati-past-bolgan-250-nafar-bolaga-koxlear-implant-ornatildi-33196132.html>

-bolani umumiy rivojlantirish;
-bola va uning yaqinlariga psixologik yordam ko'rsatish;
-bunda bolaning eshituv idroki va nutqini rivojlantirish ishlari quyidagicha bosqichlarda olib borilishi zarur.

1-eshitishga o'rgatish.

2-so'zni idrok etish.

3-bog'langan nutqni shakllantirish.

4-mustaqil nutqni tushunish va undan foydalanishga o'rgatish.

Koxlear implantli amaliyotdan oldin boshlangan pedagogik-psixologik reabilitatsiya ishi CI dan so'ng ham davom ettiriladi. Ushbu jarayonlarning o'z vaqtida, tizimli va to'g'ri tashkil etilishi oqibatida CI li bolalar sog'lom tengqurlari singari nutqni to'liq egallashlari mumkin degan nazariya bor. Ammo amaliyotda bu bilan bog'liq bo'lgan turli xil klinik, pedagogik-psixologik muammolar sabali hatto-ki CI li bolalar ham o'z tengqurlariga yeta olmayptilar. Shunday ekan yuzaga kelayotgan pedagogik-psixologik muammolarning yechimini topishga harakat qildik.

Fonetik ritmika mashg'uloti yuqorida sanab o'tilgan korreksion mashg'ulotlar, CI dan oldingi va ketingi korreksion -pedagogik reabilitatsiya jarayonlarining barchasida olib borilishi zarur deb hisoblaymiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) majmuasi bo'lib, muayyan nutq materialining (iboralar, so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar) talaffuzi bilan uyg'unlashtirilgan nutqiy mashqlari tizimidir. Fonetik ritmika yaxshi kinezioterapiya hamdir va uning asosi ritm hisoblanadi⁷¹ degan ta'rifga asoslanib, usbu metodikaning korreksion imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ENB bolalarga (jumladan CI li bolalar) audial, vizual, kinestetik ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelindi va buning asosida fonetik ritmikada:

Eshitishida muammoso bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan barcha jarayonlarning boshlang'ich etapi fonetik ritmika bo'lishi zarur deb hisoblaymiz, chunki L. Vigodskiy, Luriya, Pfaferod va Vlasovalar qolaversa Pulatovalar ham nutqning harakat bilan rivojlanishini ilmiy tasdiqlaganlar. Bunda harakat nutqning stimulyatori desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁷¹https://scholar.google.com/co/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sly7Y_8AAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=sly7Y_8AAAAJ:IWHJJKOFINEC

Fonetik ritmika mashg'ulotlarinig metodikasi maqola uchun foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan. Fonerik ritmika mashg' uloti eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda maktab internatlarida; oilada sharoitida; inklyuziv sinflarda olib borilishi maqsadga muvoffiq deb hisoblaymiz.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafasat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga urgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafasat olamiga olib kirish va g'oyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy «Bu fan tanning sogligi uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir». Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak.

Eshituv organidagi nuqson birlamchi bo'lib, buning oqibatida hutqni eshita olmaslik ikkilamchi nuqson sifatida yuzaga kelib, oqibatda bolaning jamiyatdagi o'rnini topa olmaslik holatlari uni butun hayoti davomida qiyinchiliklaga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Buni L.S.Vigotskiy, F.F.Rau, L.P.Noskova, L.A.Golovchis, I.Kislisina, U.Fayziyev, F.Alimxodjayeva va boshqa olimlarning asarlarida e'tirof etiladi. Ilk davrda eshituv nuqsoniga ega bolalar eshitadigan bolalar singari ovoz chiqarish, gugulash, so'ng g'uldirashdek nutqning ilk ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Keyinchalik, bu toifadagi bolalarning nutqi rivojlanmay qolishi boshqalar nutqini eshitib, taqlid qilish jarayonida uzilish sabab bo'ladi. Oqibatda og'zaki nutq kommunikatsiyasi egallanmay qoladi. Faqatgina, maxsus yaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonida eshituv nuqsoniga ega bolalar muloqot vositalarini egallashi, ayniqsa og'zaki nutqqa o'rganishi mumkin. Musiqiy elementlar orqali harakatlar bajarish va ayniqsa nutqiy

aperatsiyalar amalga oshirish esa bolalardagi pivojlanishni jadallashishiga olib keladi.

Biz Vlasova va Pfaffenrod taklif etgan tovushlar talaffuziga olid shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi metodikani takomillashtirdik. Bunda biz o'zbek tili orfoepik qoidalarini inobatga olgan holda chuqur til irqi tovushlari "q", "g", "h" va unli tovush "o" uchun fonetik ritmika mashqlarini ishlab chiqishga erishdik. Bunga ko'ra elektron metodik qo'llanma yaratdik. Ushbu elektron qo'llanmadan foydalanish uchun maktab tarbiyachilariga, surdopedagoglarga, individual o'qituvchilarga hamda ritmika rahbarlariga taqdim etdik.

Harakatda hayot, shunday ekan, biz tanlagan fonetik ritmika maxsus metodikasi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning barcha toifalarida og'zaki nutqni shakllantirishda xizmat qiladi. Harakat orqali bajarilgan barcha nutqiy materiallar kinestetik, nevrologik jihatdan qabul qilinadi, bunda miyada burmalar hosil bo'lishi tezlashadi va natijada xotira hosil bo'ladi. Paydo qilingan nutqiy ko'nikma muntazam takrorlatilganida esa malakaga aylanadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan barcha jarayonlarning boshlang'ichi etapi fonetik ritmika bo'lishi zarur deb hisoblaymiz, chunki L. Vigodskiy, Luriya, Pfaffenrod va Vlasovalar qolaversa Pulatovalar ham nutqning harakat bilan rivojlanishini ilmiy tasdiqlaganlar. Bunda harakat nutqning stimulyatori desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday ekan fonetik ritmika maxsus metodikasini eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan barcha turdagi ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritish zarur deb hisoblaymiz. Isdiqbolda biz tomonidan "Fonetik ritmika" maxsus metodikasini nutqiy nuqsonlarni korreksiyalashda qo'llab ko'rish rejalashtirmoqdamiz.

2.8 Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish ilmiy-metodik muammo sifatida

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizdagi alohida ehtiyojli aholi qatlamiga, ayniqsa alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga mehr va muruvvat ko'rsatibgina qolmasdan, ularga hamma kabi yashash, ta'lim olish, o'z kelajagini o'z qo'li bilan yaratishdek katta imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bu 2020 yilda qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonun, 2023 yilgi yangi tahrirdagi

"O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi" (50 madda, 6chi bo'lim) va qator farmon va farmoishlar, qrorlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Endilikda barcha ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun inkluziv ta'lim joriy etilgani ushbu toifadagi bolalarni jamoatlashtirishdagi ko'pgina muammolarni hal etdi.

Ammo har bir insonning hayotda o'z o'rnini topishi uchun unga atrofdagilar bilan munosabatga kirishish muhimdir. Ayniqsa nutqiy munosabat alohida o'rin tutadi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan insonlar toifalari juda ko'p (ko'rishida muammolari bo'lganlar, aqliy muammolari bo'lganlar, nutqida nuqsoni bo'lganlar, eshitishida muammolari bo'lganlar va h.z) ammo, shulardan nutqiy munosabatga kirishishga qiynaluvchi, boshqalar nutqini (alohida tayyorgarliksiz) to'liq tushunish va o'zi ham boshqalardek muloqotga kirishishda mushkulliklarga eng ko'p duch keladigan toifa bu eshitishida muammosi bo'lgan insonlardir.

Inson atrof muhitni to'liq anglashi uchun uning barcha analizatorlari birdek ishtirok etishi muhimdir. Inson hayoti davomida oladiyan barcha informatsiyaning 13% eshituv analizatori orqali qabul qilishi isbotlangan. Eshituv orqali esa nutq shakllanishini, nutqiy muloqotning yetarli darajada amalga oshishida eshitishning o'zni beqiyos bo'lib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok etish sanaladi. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili hisoblanib, u orqali insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi.

Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a'zolar sistemasi orqali amalga oshiriladi-ki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi. shunday ekan eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning nutqi rivojlanmay qolishi, "soqovlik" ning yuzaga kelishi ikkilamchi va eng katta nuqsonni keltirib chiqaradi. Eshitishida muammosi bo'lganlarning nutqini rivojlantirish ustida birinchi bor Yevroppada salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan ispaniyalik rohib Pedro De Leon 1550 yillarda ijobiy natijalarga erishgan. Bugungi kungacha fan va texnologiyalar taraqqiy etib ketayotgan zamonda imkoniyatlar yanada kengaydi. Hozirgi zamon eshitishida muammolari bo'lgan bolalar avvalgi zamonda yashagan toifadoshlaridan ancha oldindalar. Dunyo bo'ylab urfga kirgan Koxlear implantatsiya natijasida juda ko'pchilik bolajonlarimizning eshituv jarayoni tiklandi. Mamlakatimizda har yili

700-800 nafardan ko'p bola tug'ma eshitish qobiliyatining pastligi va karlik bilan tug'iladi, yiliga mingdan ortiq kishiga orttirilgan karlik tashxisi qo'yiladi. 2019 yil holatiga 1000 dan ortiq ko'xlear implantini o'rnatish operatsiyasi o'tkazildi. Shu yilning o'zida 180 ga yaqin bola maktabga chiqi. Ularning katta qismi sog'lom bolalar qatori umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qimoqda.

Ming afsus-ki, implant o'rnatib, funksional eshituv tiklanganining o'zi bolaning nutqini rivojlanib ketishi uchun yetarli emasligi tajribadan ma'lum bo'ladi. Operatsiyadan keyingi reabilitatsiya ishlari juda muhim sanaladi. Tug'ilganidan bugungi kunga qadar bola tovushlarni, ayniqsa nutqiy tovushlarni to'liq eshitmas edi, uning uchun bugungi kunda eshitayotgan barcha tovushlari tushunarsiz bir shovqindek tuyulishi aniq. Operatsiyadan keyingi reabilitatsiya ishlari o'z ichiga eng avvalo eshitishga o'rgatishni talab etadi. Bola nutqiy va nonutqiy tovushlarni ajratishga o'rganadi, nutqiy nafas, ovoz, funksiyalarini egallaydi, nonutqiy tovushlarni talaffuz etishga o'rganadi va albatta nutqiy tovushlarni talaffuz etishga o'rganishi lozim bo'ladi. Mamlakatimizda soha mutaxassislari, olimlar tomonidan ko'plab samarali metodikalar amaliyotga tadbiiq etilgan. Ushbu metodlar eshitishida muammosi bor bolalarning labdan o'qish qobiliyatini shakllantirgan, imo - ishora va daktil nutqdan foydalanishga o'rgatgan. Ammo endi bola eshitadi, bunday holatda asta-sekinlik bilan bolalarimizni og'zaki nutqqa o'rgatish lozim va zarurdir. Endi bizga bolalarning aynan shu tomonini rivojlantirishga maksimal yordam beruvchi metodika zarur bo'lmoqda. Shunday metodikalardan biri biz o'rganayotgan Fonetik ritmika metodikasidir.

Fonetik ritmikada asosiy ish bolaga tovushni ham vizual, ham akustik va ham kinestetik anglatish hisoblanadi. Tovushni bola butun badani bilan his etadi, eshitadi va ko'radi. Tovush nutqda paydo bo'lgach uni bo'g'in va so'zlarda mustahkamlash uchun ham audial+vizual+kinestetik ta'sir ko'rsatiladi. Bu jarayonlarga ritm ham qo'shiladi. Chunki eshitishida muammosi bor bolalarning og'zaki nutq prosodika tarafdin ham nuqsonli bo'lib chiqadi. Agar biz so'z yold gapdagi urg'ular, intonnatsiya ustida ishlamasak bolaning nutq tushunarsiz bo'lib qoladi. Fonetik ritmika mashqlarida ritm funksiyasi shu muammoni hal etishda yordam beradi.

Fonetik ritmika orqali bola nutqining barcha komponentlari rivojlanadi. Bunda so'z va iboralardan so'ng gap ba matn ustida ishlar

boshlanadi. Bolalar bilan sherlarni yod olish bilan birgalikda ularni emotsional, ifodali qilib talaffuz etish ko'nikmalarini ham rivojlantirish uchun elementar mashqlar majmui ham bajariladi.

2021 yildan buyon olib borilayotgan tadqiqotlardan shu aniq bo'ldi-ki, eshituv qoldig'i qisman bo'lsada tiklangan bolalarimiz, zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining talaffuz tomonini shakllantirish va rivojlantirish uchun fonetik ritmika juda samarali usul hisoblanadi. Uning negizida harakat yotar ekan, harakat esa nutqni rivojlantirishi neyrologik tomondan isbotlanfan fakt ekani Luriyaning 2003 yilda nashr etilgan "Основы нейропсихологии" asaridan bizga ma'lum. Fonetik ritmikada esa talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar bor.

Fonetik ritmikamashg' ulotlari o'z ichiga quyidaki korreksion vazifalarni oladi:

- bolaning umumiy va mayda motorikasini rivojlantirish;
- nutqiy nafas va ovozni shakllantirish, rivojlantirish;
- bolaning kinestetik sezgisini rivojlantirish;
- talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish;
- nutqining prosodik tomonini shakllantirish va rivojlantirish;
- temp va ritmni his qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- jamoada harakatlanish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish va h.z.

Hozirda mamlakatimiz bo'ylab 3 ta maxsus maktab internatida tajriba-sinov ishlari olib borilayotganini ma'lum qilamiz. Tajriba-tinov ishlarining dastlabki bosqichlarida biz tomondan izlanishlar natijasida maxsus muassasalarda olib borilayotgan korreksion darslarda og'zaki nutqqa o'rgatish ishlarining aksariyat qismi faqat eshituv idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish mashg'ulotlarida olib borilishi aniqlandi. Bu degani boshqa korreksion mashg'ulotlar fitmika va hokazolarda og'zaki nutqqa o'rgatish ishlariga urg'u berilmaydi. Masalan ritmika mashg'ulotlarida bolalarga hayvonlar harakati va ovozigga taqlid qilish yoki bayram tadbirlari uchun raqslar o'rgatishga ko'proq urg'u berilar ekan. Ammo bunday tajribaga ega bo'lgan eshitishida nuqsonu bor bola ertaga kata hayotda hamma singari o'z o'rnini topib ketishiga yetarli emas-ku! Shunday ekan, shu va boshqa barcha o'quv mashg'ulotlarida fonetik ritmika elementlariga murojaat qilinsa, bolalarning og'zaki nutqni egallashi osonroq kechadi deb hisoblaymiz.

Xulasa qilib shuni aytish joiz-ki, fonetik ritmikaning ko'pqirraligi va differensialligi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga og'zaki muloqotni o'rganishga olib boruvchi eng optimal yo'ldir.

2.9 Kichik maktab yoshidagi dislaliy o'quvchilarida fonematik idrokni va barmoqlar harakatchanligini tekshirish jarayoni.

Fonematik idrokni rivojlantirish logopedik ishning dastlabki davrlaridanoq olib boriladi hamda yakka, guruhli mashg'ulotlarda o'yin ko'rinishda o'tkaziladi. Korreksiya logopedik ish avval nutqsiz tovush materiallaridan boshlanadi va sekin asta nutqdagi hamma tovushlarni o'z ichiga oladi.

Dislaliya bu (grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-qisman, laliya-nutq dedan ma'noni anglatishi) funksional eshituv va nutq apparati innervatsiyasi saqlangan holatda tovushlar talaffuzining buzilishidir. Fonemati idrok esa tovushlarni eshitib idrok qilish tushuniladi.

Dislaliyaning 7 xil turi mavjud⁷²:

- Sigmatizm (sirg'aluvch, shovqinli tovushlarning nuqsonga uchrashi)
- Ratatizm (r tovushining nuqsonga uchrashi)
- Kappatizm (til orqa va chuqur til orqa tovushlarning nuqsonga uchrashi)
- Gammatizm (G tovushining nuqsonga uchrashi)
- Xitizm (X tovushining nuqsonga uchrashi)
- Yotatizm (yolashgan unilarning nuqsonga uchrashi)
- Lambdatizm (L tovushining nuqsonga uchrashi)

Statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirda 4 yoshli bolalarning 25% da bunday nutqiy nuqsonlar kuzatilar ekan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning esa har 5 nafaridan birida dislaliya kuzatilayotgani amaliyotdan ma'lum. Nutqiy nuqson maktabgacha yoshda bartaraf etilmasa, maktab yoshiga kelib, bu nuqson o'zi bilan ikkilamchi nuqson, ya'ni disleksiya va disgrafiya nutq kamchiliklarini ergashtiradi. Disgrafiya bu o'qish jarayonining qisman buzilishi, disleksiya bu yozish jarayonining qisman buzilishi demakdir.

Birinchi mashg'ulotlardan o'quvchilarning fonematik idrokni rivojlantirish bilan parallel ravishda eshitish diqqati va eshitish xotiralari ustida ish olib boriladi. Bu esa fonematik idrokni rivojlantirishda eng samarali va jadallashtirilgan natijalarga erishishga imkon beradi. Bu juda

⁷² M Ayupova Logopediya 2007 yil Toshkent

muhimdir, chunki atrofdegilar nutqini eshita bilmaslik tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik sabablaridan biridir.

Logopedik mashg'ulotlar jarayonida bola o'z talaffuzini nazorat qila olishi va o'z nutqini atrofdegilar nutqiga taqqoslash asosida talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilay olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Bolalarda fonemalarni farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan hamma logopedik ishlar tizimini shartli ravishda olti davrga bo'lish mumkin deydi Achilova. Unga ko'ra davrlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1 - davr-nutqsiz tovushlarni bilish.

2-davr-bir xil tovush, so'z birikmasi va iboralarda ovozning balandligi, kuchi, tembrini ajratish.

3- davr-tovush tarkibi bo'yicha o'xshash so'zlarni ajratish.

4- davr-bo'g'inlarni farqlash.

5- davr-fonemalarni farqlash.

6- davr-tovushlarni oddiy tahlil qilish malakalarini rivojlantirish.

S.J. Achilovanning fikricha dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish ishlari yakka va guruhli mashg'ulotlar o'rtasida doimiy ravishda ham logoped va tarbiyachi tomonidan olib borish mumkin. Tashkil qilinayotgan mashg'ulotlarda bolalarning nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni farqlashga ham e'tibor berilishi kerak.

Biz tadqiqotimizda S.J. Achilovanning taklif etgan metodikasidan foydalangan holda quyidagicha tekshiruv usullarini tanlab oldik. S. Achilova maktabgacha yoshdagi bolalarning fonematik idroki ustida ishlagan bo'lsada, avtor tomonidan taklif etilgan metodikalarda samaralilikka e'tibor qaratilganligi va izchillikda tekshirish olib borishga qulay ekanligi boisidan biz ushbu usullarni tekshiruv metodikasi sifatida tanlab oldik va boshlang'ich sinf dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarga moslashtirdik.

Dislaliya nutq kamchiligiga ega bolalarning fonematik idroki holatini, uning buzilish sabablarini tekshirishda noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushlar bilan bir qatorda, to'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlarni farqlash imkoniyatini beradi.

Har bir bola alohida tekshiriladi va tekshirish natijalari nutq kartasiga qayd etib boriladi. Bolalarga topshiriqlar og'zaki usulga beriladi. Fonematik idrokni tekshirishda maxsus logopedik albomdan foydalangan holda, quyidagi topshiriqlardan foydalanildi:

1-etap: Fonematik idrokni tekshirish usuliari:

1-topshiriq. Bir qator tovushlar ichidan ma'lum tovushni ajratish: masalan

"K" tovushini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

a) s, d, k, r, j, k, l, z, k

b) z, k, m, v, k, ch, t, k, g v) q, x, k, f, r, k, d, p, k

2-topshiriq.

2A variant: Bir qator bo'g'inlar ichidan ma'lum bo'g'inni ajratish: masalan "za" bo'g'inini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

2B variant: Bir qator

bo'g'inlar ichidan ma'lum tovush ishtirok etgan bo'g'inni eshitib ajratish va kartadan o'chirish: masalan "z" bo'g'inini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

a) ka, ta, za, ra, ga, za b) da, za, la, cha, za, s

v) pa, sa, za, ba, ja, za

3-topshiriq.

3A variant: Bir qator so'zlar ichidan "sh"

tovushi ishtirok etgan so'zlarni eshitsang chapak chal. a) bosh, bol, shoh, tor, shar b) olma, tesha, dala

v) shamol, pashsha, kalish

3B variant: logoped bir qator so'zlarni talaffuz etadi, bola ular ichidan "sh"

tovushi ishtirok etgan so'zlarni eshitsang kartochkadagi shu so'zni topib tagiga chizadi. a) bosh, bol, shoh, tor, shar b) olma, tesha, dala

s) shamol, pashsha, kalish.

4-topshiriq.

4A variant:

Artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni logoped ketidan qaytarish:

z-s, s-z, d-t, t-d, b-p, p-b, sh-j, j-sh, k-g, g-k, r-l, l-r, ch-j, j-ch

ka, ta, za, ra, ga, za,
ak, ot, ik, uz, up, us,
oz, os, iz, is, it, o'z, us.

2B

2A variant topshirig

a) bosh, bol, shoh, tor, shar
b) olma, tesha, dala
c) shamol, pashsha, kalish

3B variant topshirig 'i

4B variant: Artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni logoped og'zidan eshitib, chiziqcha bilan yozib borish:

z-s, s-z, d-t, t-d, b-p, p-b, sh-j, j-sh, k-g, g-k, r-l, l-r, ch-j, j-ch

5-topshiriq.

5A variant: Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni logoped ketidan takrorlash:

a) gul-kul, bol-pol, tuz-tus, jar-shar...

b) jo'ja-go'ja, etik-eshik, sayr-sayl...

v) kitob-shitob, bolta-bolg'a, tovush-tovus...

5B variant: Logoped tomonidan bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni aytiladi, o'quvchi daftariga so'zlarni chiziqcha bilan yozadi:

a) gul-kul, bol-pol, tuz-tus, jar-shar...

b) jo'ja-go'ja, etik-eshik, sayr-sayl...

v) kitob-shitob, bolta-bolg'a, tovush-tovus...

6-topshiriq.

6A variant: Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarga rasm tanlash: "mana bu rasmlar ichidan nomi bir tovush bilan farq qiladigan rasmlarni ajratib ber".

Olma-olcha, stol-stul, paxta-taxta, shapka-shashka, mashina-

"Ur to'qmoq" ertagi

(namunaviy tekst)

Biy boy ekan, biy yo'q ekan, biy kampion, bilan biy chol boy ekan. Ulay ovchilik bilan kun o'likazay ekanlay, Biy kun chol tuzoq poylab o'liygan ekan, tuzoqqa katta biy laylak tushibdi. Yuqurib borib laylakni tuzoqdan chiqayibdi. Laylak odamdek so'zlamogga boshlabdi:



— Chol, men laylaklayning boshlig'iman, meni qo'yib yuboy, nima tilasang shuni beyaman. Mening makonim shu qayshidagi tog'ning oyqasida. «Laylakvoyning uyi qayyida», desang, hamma aytib beyadi. — debdi...

6B variant topshirig 'i

malina...6B variant: Taklif qilingan kichkina matndagi xatolarni toppish.

2-ETAP Fonematik tasavvurni tekshirish.

Bunda bolalarni quyidagi topshiriqlar yordamida tekshirdik.

Nomlari oppozitsion tovushlar bilan boshlanadigan buyumlarga oid rasmlarni ikki guruhga ajratish. Masalan, s-sh, s-s, ch-s, z-j, r-y.

"Menga nomi s tovushi bilan boshlanadigan rasmlarni chap tomonga ajratib ber". Bu topshiriqda bolaga "s" va "sh" tovushi so`zning boshida kelmagan hamda umuman qatnashmagan rasmlar ham berildi.

2) Nomlari jarangli va jarangsiz tovushlar bilan boshlanadigan predmetlarga oid rasmlarni ikki guruhga ajratish. Masalan, z-s, v-f, d-t, b-p, k-g, j-sh.

Berilgan tovush ishtirokida so`z tuzish: "Menga "k" tovushi ishtirok etgan so`zlarni aytib ber". Bolaga namuna tarzida "k" tovushi ishtirok etgan bir so`z aytili.

4) Ma'lum tovushga rasm tanlash: "mana bu rasmlar ichidan nomida "l" tovushi ishtirok etgan rasmlarni bir tomonga ajratib ber".

3-ETAP: Tovushlar tahlilini tekshirish.

Tovushlar tahlilini tekshirishda quyidagi topshiriqlardan foydalanildi:

1-topshiriq.

1. So`z boshidagi tovushni aniqlash: "men aytgan so`zlarimni eshitib ularning birinchi tovushini aytasan".

a) ariq, odam, uzuk, uzum, o`rik, echki..

b) shamol, bahor, karam, ro`mol...

v) daftar, maktab, telpak, qo`lqop...

2- topshiriq. So`zdagi kerakli tovushlarni aniqlash: "eshitgan so`zlaring orasida "d" tovushi so`zning qayerida kelganini ayt". Topshiriq bolaga bir misol yordamida tushuntirib beriladi.

a) doska, deraza, dazmol...

b) oydin, parda, bug`doy...

v) poyezd, zumrad, poroxod...

3-topshiriq.

3.3A variant: Tovushning so`zdagi o`mini aniqlash: "eshitgan so`zningda uchinchi (ikkinchi, to`rtinchi) bo`lib qanday tovush kelyapti?".




a) arqon, oshpaz, anjir...

b) buzoq, ro`mol, kalit

3.3B variant: Tovushning so`zdagi o`mini aniqlash: "eshitgan so`zningda uchinchi (ikkinchi, to`rtinchi) bo`lib qanday tovush kelyapti?".

a) arqon, oshpaz, anjir...

b) buzoq, ro`mol, kalit



Bunda bolalar so`zlar uychasidan foydalangan holda ishlaydilar.

4-topshiriq. Tovushning so`zdagi keima-ketligini aniqlash:

a) ota, choy, gul, til...

b) buvi, kosa, soat, piyoz...

v) gilos, sochiq, zirak, randa...

5-topshiriq. So`zdagi tovushlar sonini aniqlash: "eshitgan so`zningda nechta tovush bor?".

a) ot, in, un, el, ip, oy, it...

b) ari, bir, don, fil, tish...

v) sigir, tulki, ruchka, gilam...

4-ETAP: Tovushlar tarkibini tekshirish.

Buning uchun bolalarga quyidagi topshiriq.

1-topshiriq. Ketma-ket tovushlardan so`z tuzish: "men tovushlar aytaman, sen ular ishtirokida so`z tuzasan".

a) ch-o-l, k-o`-z, q-u-sh, s-o-ch...

b) b-o`-r-i, a-r-ch-a, e-ch-k-i.

v) p-i-ch-o-q, q-o-g-o-z, t-o-v-u-s.

2-topshiriq. Ketma-ketligi buzilgan tovushlardan so`z tuzish:

a) ya, u, t, (tuya, uyat); o sh, b (bosh); g, z, o (g`oz)

b) o, l, b, a (bola); ch, l, o, a (olcha); r, o`, k, i, (o`rik) v) b, u, z, q, o (buzoq); t, r, a, u, n (turna); l, a, n, g, a (lagan)

Tekshirish davomida tekshirilayotgan har bir tovushga alohida rasm tanlandi. Rasmlar quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tanlandi:

- ma'lum bir tovush ishtirok etgan rasm;
- ma'lum bir tovushga yaqin tovush ishtirok etgan
- ma'lum bir tovush ishtirok etmagan rasm.

Tekshirish uchun tanlangan metodikalarni har bir bolada individual va frontal shaklda olib bordik.

D.A.Nurkeldiyeva, M.Y.Ayupova z, Z.M.nazariyasiga ko'ra, bolaning qo'l panjasi va barm oqlarini harakatlantirish o'ziga xos rivojlantiruvchi ta'sirga ega ekani isbotlangan. Mutaxasislarning ta'kidlashicha, qo'l va barmoqlar ishtirokidagi o'yinlar tana va ongning o'zaro bo'liqligini ta'minlaydi. Qo'lning oddiy harakatlari nafaqat qol balki lab, yuz mushaklari zo'riqishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlar talafuzini yaxshilashga ham yordam beradi. Barmoqlarning mayda harakatlari bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Barmoqlar rivojlanishi evaziga miyada nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqli hamdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondoshishga imkon beradi. Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishi esa ko'nikmalarning shakllanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi. Quyida tavsifiya etilayotgan barmoq mashqlari uch martadan besh martagacha avval bir qoida, so'ngra esa ikkinchi qolda va nixoyat ikkala qolda bajariladi. Logopedlar, ota-onalar bolaning mashqlarni to'g'ri bajarishi, bir harakatdan ikkinchisiga aniq o'tishini kuzatib turishlari lozim.

Dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning barmoqlar harakatchanligini tekshirish usullarining ham juda xilma-xillari mavjud, Biz avvalo bolalarning ish daftarlarini tahlil qildik. Savodga o'rgatish, yozuv daftarlaridagi qo'lyozmalari bolalardagi barmoqlar harakatidagi kamchiliklarni yaqqol namoyon etib turar edi. Tekshiruv yanada chuqurlashtirilgan va aniqroq bo'lishi uchun S.J. Achilovning taklif etgan metodikalaridan foydalandik.

Barmoqlar harakatchanligini tekshirish usullari:

1-topshiriq. Bolaning qo'l harakatlarini tekshirish. "Avval o'ng qo'lingni so'ng chap qo'lingni ko'tar".

2-topshiriq. Qo'llarning uloqtirish va ushlab olish texnikasi tezligini tekshirish. «Koptokni do'stingga uloqtir va do'sting senga uloqtirgan koptokni ushlab olishga harakat qil 1 marta»

3-topshiriq. Bolaning oyoq harakatlarini tekshirish. "Avval o'ng oyog'ingni so'ng chap oyog'ingni ko'tar".

4-topshiriq. Bolaning ikkala oyoq bilan bir vaqtda harakatlanishni tekshirish. Logoped boladan bir joyda 2 marta o'tirib turishni so'raydi.

5- topshiriq. Bolaning ikkala qo'l bir vaqtda harakatlanishni tekshirish.

Logoped boladan ikkala qo'lini tepaga va pastga 2 marta ko'tarib tushurishni so'raydi.

6- topshiriq. Bolaning tana muvozanatini ushlay olish va oyoqlar harkatini rivojlanganlik holatini aniqlash. Polga uzun lenta yotqiziladi, so'ngra boladan shu lenta orqali yurish so'raladi (5, 6 qadam).

7-topshiriq. Bolaning qo'l harakati yordamida aniq geometric shallarni chiza olishni tekshirish. Logoped boladan oq qog'izga uch burchak chizish so'raladi.

8-topshiriq. Bolaning geometrik shakl chizish orqali barmoqlar uchi va predmetni ushlay olish harakatini tekshirish. Boladan oq qog'ozga to'rt burchak chizish so'raladi.

Alfavitdagi harflardan ko'ra jonli nutqda tovushlar xilma-xilligi ko'proq deb hisoblaymiz, nutqning barcha tovushlari bugungi alifbomizga harf holatiga keltirilmagan deb o'ylaymiz. Nutq orqali talaffuz etiladigan tovushlar bugungi kunda biz o'rganayotgan alfavitdagi harflardan ko'ra birmuncha ko'proq. Fonemani to'liq va aniq talaffuz qilish mumkin emas, faqatgina ularning ayrim ohanglari talaffuz qilinadi. Bizningcha fonema – umumiy va haqiqiy talaffuz qilingan tovushdir.

Fonemik idrok-so'zning tovush tuzilishini o'rnatish uchun maxsus aqliy jarayon bo'lib, u nutq tovushlarini idrok etish va farqlash qobiliyati hisoblanadi. Fonemik idrokning benuqson rivojlanishi bolaning o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishida eng muhim va asosiy o'rinda turadi.

Biz toondan tanlab olingan tekshiruv metodikalari o'quvchilarning yoshiga moslashtirildi va bu bizga tekshiruvning qiziqarli va maroqli o'tishiga zamin yaratdi. O'quvchilar ham individual va ham frontal ishladilar.

Xulosa qilib shuni aytish joiz-ki, tanlangan tekshiruv metodikalari takomillashtirilsa, ular judayam samarali rivojlantiruvchi indikator bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, biz quyida o'qituvchi va logopedlarga ushbu usullarni har bir darsda ishlatishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni – T.:Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997
2. Sh. Mirziyoyev Yangi Ozbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. Toshkent-2022 “Ozbekiston” nashriyoti, 202-208 chi bet.
3. O'zbekiston respublikasida nogironlarni himoya qilish to'g'risidagi 162 sonli qarori.
4. PQ-4860 Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2021 yil
5. Власова Т.М., Пфафенродт А.Н.Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛА-ДОС», 1996.
6. НАЗАРОВА Дилдора Асатовна «Мактабгача ёшдаги заиф эшитувчи болалар» Нуткини ривожлантириш. Toshkent-2009.
7. У.Файзиева, Д.Назарова, Ф.Кодирова Сурдопедагогика /П.ф.и., У.Файзиева тахрири остида/Т-2012 yil .: «Сано-стандарт» нашриёти. - 304 б.
8. Абдуллаева Гавхар Сапаровна. Технология коррекционно-развивающей работы с глухими учащимися 1-2 классов по формированию и развитию слухового восприятия и произношения. Circhiq -2019 yil
9. Mamarajabova Zulfiya Narbaevna Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) o'quv qo'llanma. Toshkent-2017 yil.
10. F.U.Qodirovaning “Kar va zaif eshituvchi bolalar og'zaki nutqini shakllantirish” Toshkent -2012 yil
11. Абашкина Раиса Александровна, студент Волгоградский государственный социально-педагогический университет «Фонетическая ритмика как средство коррекции произносительных навыков детей с нарушениями слуха во внеурочное время» «Молодой учёный» Международный научный журнал. № 25 (211) / 2018
12. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped. fan. nomz. dis. avtoref...- T.:TDPU.2009.
13. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomil

lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy echlamlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – T.,2007. – B. 60-63.

14. Nazarova D. Eshitishda muammosi bo`lgan bolalarni oilada maktab

ta'limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo`llanma. –T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007.–

15. L.Mo`minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fanva texnologiyalar .2013.

16. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar o`quvchilar nutqini shakllantirish.:Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.: TDPU.2006

17. Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o`rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TDPI. 1994.242

18. Fayzieva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 0,1-5 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta'lim talablari va dasturi– T.: O`qituvchi, 2014

19. R. Rustamovaning “Boshlang'ich sinflarda zaif eshituvchi o`quvchilar nutqining grammatik qurilishi”

20. O.S.Ishmatova . “Korreksion mashg`ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalar og`zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish texnologiyasi (0-1 sinflar misolida)” magistrlik dissertatsiyasi. Chirchiq -2022. (64-67 betlar)

21. Abdullayeva G.S., Ishmatova O.S. Fonetik ritmika. “Firdavs-Shoh” nashriyoti. Toshkent-2023.

22. Abdullayeva G.S., Ishmatova O.S. Audiologiya va surdotexnika. Firdavs-Shoh” nashriyoti. Toshkent-2023.

23 Ishmatova, O. S. (2022). Mavzu: Eshitishida nuqsoni bor bolalarni estetik tarbiyalashning muhim omil. uzbek scholar journal, 10, 333-336.

24. Ishmatova, O. S. (2022). Role of phonetic rhythm in correction of speech defects. galaxy international interdisciplinary research journal, 10(11), 487-491.

25.Xusnuddinova, z. x. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o`quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.

26. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.

27. Ishmatova, O. (2023). The effectiveness of using phonetic rhythm in speech development of children with special needs. science and innovation, 2(b5), 232-

28. Ishmatova, O. & Xolmirzayeva Z. (2023, january). Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalarning rivojlanishida oilaning ro`li. in международная конференция академических наук (vol. 2, no. 1, pp. 21-25).

29. Surdopedagogika Mamarajabova Z.N. T-2017

30. Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М., 1991

31. Qodirova F. U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o`quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.:TDPU, 2006. – 20 b.

32. Fayziyeva U. Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o`rgatish. : ped. fan. nomz. dis. . . . avtoref. – T.: TDPI. 1994. – 18 b.

33. (U. Fayziyeva «Alifbe», «Nutq o`stirish», N. Dadaxo`jaeva «Matematika» va b.) (1989 y.).

34. Qodirova F. U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o`quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.:TDPU, 2006. – 20 b.

35. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg`ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og`zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.

36. Ishmatova, O. S. (2022). MAVZU: ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNI ESTETIK TARBIYALASHNING MUHIM OMIL. Uzbek Scholar Journal, 10, 333-336.

37. Ishmatova, O. S. (2022). FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINI QO`LLASHDA AKT NING ROLI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 781-786.

38. Ishmatova, O. S. (2022). ROLE OF PHONETIC RHYTHM IN CORRECTION OF SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 487-491.

39. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.


40. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.

41. Ishmatova, O. (2023). THE EFFECTIVENESS OF USING PHONETIC RHYTHM IN SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Science and innovation, 2(B5), 232-236.

42. Ishmatova, O., & Xolmirzayeva, Z. (2023, January). ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING RIVOJLANISHIDA OILANING RO'LI. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 1, pp. 21-25).

43. Ishmatova, O. S., & Bahodirova, N. R. (2023). FAOL HARAKATNING TALIM TARBIYAGA TASIRI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 296-300.

44. Ishmatova, O. S., & Ashuraliyeva, I. (2023). FAOL HARAKAT REJIMINING SALOMATLIKNI SAQLASHDAGI AHAMYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 292-295.



MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ESHITISHDA NUQSONI BOR BOLALAR OG'ZAKI NUTQI O'ZIGA XOSLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI. FONETIK RITMIKANING ILMIY ASOSLARI.	
1.1 Jahonda ritmika va fonetik ritmika ta'limotining ilmiy asoslari.....	9
1.2 Jahonda va O'zbekistonda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi tarixi.....	17
1.3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.....	32
II BOB. Korrektsion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilarning og'zaki nutqini eksperimental o'rganish.	
2.1 Eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilari og'zaki nutqining rivojlanganlik darajasini aniqlash.	38
2.2 Korrektsion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmikaning rolini eksperimental o'rganish metodikasi.....	48
2.3 Tajriba-sinov ishlar natijalari.....	52
2.4 Korrektsion ishni tashkil etishda surdopedagoglarga tavsiyalar....	58
2.5 Korrektsion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan 0-1 sinf o'quvchilar og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar.....	65
2.6 Koxlear implantli bolalarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika texnologiyasining korrektsion imkoniyatlari.....	69
2.7 Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika texnologiyasining korrektsion imkoniyatlari.....	73
2.8 Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish ilmiy-metodik muammo sifatida.....	78
2.9 Kichik maktab yoshidagi dislali o'quvchilarida fonematik idrokni va barmoqlar harakatchanligini tekshirish jarayoni.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .	

CORF
Inter

o`quv
ulard
meto

work
Multi

PHON
SPEC

ESHI
OILA
hayk

HARA
YETA

REJIM
AHAM
ILMI

ISHMATOVA OZODAXON SIROJOVNA

**KORREKSION MASHG'ULOTLARDA
ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNING
OG'ZAKI NUTQINI FONETIK RITMIKA ORQALI
RIVOJLANTIRISH**


MONOGRAFIYA

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 6. Adadi 100
dona. Buyurtma № 610

Yangi chirchiq prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
22-harbiy shaharcha

9 789910 939228



ISBN 978-9910-939-22-8

